

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SIYOSATSHUNOSLIK FAKULTETI
JAHON SIYOSATI KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida

Kamaritdinova Zuxra Sharafitdinovna

**HOZIRGI ZAMON XALQARO MUNOSABATLARIDA
ANTARKTIKA MUAMMOSI**

BITIRUV – MALAKAVIY ISHI

5220500 – XALQARO MUNOSABATLAR

Ilmiy rahbar: kat. o'qit.

Mirzayakubov M.M.

Toshkent-2011

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-BOB. ZAMONAVIY GEOSIYOSIY JARAYONLARNI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI.....	9
1.1. “Kuchlar muvozanati” nazariyasi va unga doir zamonaviy yondoshuvlar.....	9
1.2. Hudud – geosiyosiy kategoriya, shakl va turlari.....	18
2-BOB. XALQARO MUNOSABATLARDA ANTARKTIKA MUAMMOSINI HAL ETISHNING HUQUQIY VA TASHKILIY-AMALIY JIHATLARI.....	30
2.1. Antarktika maqomi o‘rnatilishining halqaro huquqiy me‘yorlari.....	30
2.2. Antarktikaga nisbatan hududiy da‘volar.....	34
2.3. Davlatlar o‘rtasida Antarktika tabiiy resusrlaridan foydalanish muammosi.....	40
XULOSA.....	47
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	60
ILOVA.....	53

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda globallashuv jarayonlarining jadal rivojlanishi xalqaro munosabatlarga ta'sirini o'tkazmoqda. Mazkur sharoitda davlatlararo munosabatlarni mustahkamlash, transmilliy tahdidlarga qarshi kurashish va global barqarorlikni ta'minlash bevosita davlatlar o'rtasidagi kuchlar va manfaatlar muvozanatining shakllanishiga bog'liq. Markaziy Osiyo mintaqasi ham mazkur jarayonning ajralmas qismi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Sayyoramizning juda katta maydonida kuchlar nisbati ko'p jihatdan Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar qaysi yo'ldan borishiga bog'liq"¹.

Sh jihatdan so'ngi yillarda jahonda yuz bergan voqealar dunyoning geosiyosiy strukturasi va yo'nalishini tubdan yangiladi, jahon siyosatiga asta-sekin bir guruh yangi suveren davlatlar kirib kelishi natijasida davlatlararo siyosat va diplomatiya maydoni tubdan boshqa mohiyat va mazmun kasb etdi. Mazkur jarayonlar ayrim yirik davlartlardan o'zining tashqi va ichki siyosatini yangitdan shakllantirish va faolligini oshirish masalalari muhim vazifaga aylandi. Bu o'rinda asosiy e'tibor mamlakatlar tashqi siyosatida milliy manfaatlarni ta'minlash, uni har qanday sharoitda himoya qilishga qaratilgan.

Ta'kidlash joizki, globallashuv sharoitida davlatlarning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishi, mavjud tabiiy resusrlar manbaining tugash ehtimoli va jahondagi demografik holat, aholining o'sishda davom etishi jahon davlatlarini mavjud siyosatini qayta ko'rib chiqishga, iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning muqobil variantini izlashga majbur qilmoqda. Shu bois bugungi kunda Antarktika materigi va uning xalqaromunosabatlardagi o'rni, xalqaro huquqiy tartiboti dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu sabab so'nggi vaqtlarda Antarktika yuzasidan mavzular majmui shiddat bilan o'rganilmoqda, va bu bejizga emas:

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон Буюк келажак сари. –Т.:Ўзбекистон, 1999. –Б.421.

Birinchidan, jahon iqtisodining o'sib borayotgan talabini qondirish uchun ko'p miqdorda tabiiy resurslar talab qilinmoqda(xususan, yangi iqtisodiy qudratga ega bo'lib borayotgan Xitoy va Hindiston kabi davlatlar).

Ikkinchidan, texnologiyalarning taraqqiy topib borayotganligi resurslar uchun kurash olib borayotgan mamlakatlarni Antarktidada boyliklarni o'zlashtirish sanoati haqida fikr yurgizishga majbur qilmoqda.

Va uchinchidan, so'nggi yillarda ushbu muzlikdan iborat materikda sodir bo'layotgan global isishning tezlashib borayotganlidir.

AQSh geologik xizmatining tasdiqlashicha, Antarktika 6,5 mlrd tonna neft, 4 trln kuba metrdan oshiq tabiiy gaz hamda 90 % chuchuk suv zahiralarga ega¹. Bu esa xom ashyo uchun kurash davom etayotgan bir sharoitda davlat o'rtasidagi asosiy nizo manbaidan biriga aylanish ehtimoli mavjudligini ko'rsatadi.

Natijada 1959 yilda Antarktikaning xalqaro huquqiy maqomi o'rnatildi. Ushbu shartnomani ikki guruh davlatlari imzolashgan bo'lib, birinchi guruhga Antarktida yerlariga o'z da'volarini bildirayotgan davlatlar: Argentina, Chili, Buyuk Britaniya, Norvegiya, Avstraliya, Yangi Zellandiya, Fransiya. Ikkinchi guruh esa hududiy da'volarga ega bo'lmagan davlatlar: AQSh, Rossiya, Yaponiya, Belgiya, JAR, 1961 yilda Braziliya, Polsha, Daniya, Niderlandiya, Ruminiya va Germaniya davlatlari qo'shilishdi.

Umumlashtirib aytganda, Antaktika 1959 yilgi shartnomaga asosan, de yure tarzda hech bir davlatga tegishli bo'lmay, mazkur materik faqatgina tinchlik va ilmiy maqsadlar uchun jahonning barcha davlatlari uchun ochiq hisoblanadi. Biroq, fe fakto tarzda materikka nisbatn yaqin davlatlar va o'zga yetakchi davlatlar hududiy da'volarini ilgari surishmoqda. Bu hududiy da'volar iqtisodiy rivojlanib borayotgan jahonda xom ashyoning muqobil variantini qidirib topish sharoitida keskinlashib borayotganini kuzatish mumkin. Agar mazkur masala kelgusida qayta ko'rib chiqilmasa, bu materik uchun uchun davlalar o'rtasidagi munosabatlarda keskinlikning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

¹ В мире начинается борьба за ресурсы Антарктиды // www.pravda.ru - 13.04.2008.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Bitiruv malakaviy ishni tayyorlashda, avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning davlatimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining tamoyillari, mintaqaviy xavfsizlik masalalari keng va har tomonlama yoritib berilgan asarlariga va xalqaro tashkilotlar doirasida O'zbekiston pozitsiyasi yuzasidan so'zlagan nutqlariga tayanildi¹.

Jahonda kechayotgan geosiyosiy jarayonlar, xalqaro munosabalarining bugungi kundagi holati, kuchlar muvozanatining shakllanish tendensiyalari, tabiiy resurslar uchun kurash, mazkur holatlarning xalqaro-huquqiy me'yorlari, Markaziy Osiyoning jahon siyosatidagi ahamiyati, mahalliy olimlar S.Akobirov, R.M.Alimov, I. Vaskin, S.Jo'raev, T.Jo'raev, Mustapova H.I., X.T.Odilqoriev, B.E.Ochilov, S.Saidolimov, S.Safojev, X.P.Umarov, U.A.Hasanov, A.M.Qosimov² singari bir qator olimlarning ilmiy asarlarida va maqolalarida keng yoritib berilgan.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.:Ўзбекистон, 1997, –326 б.; Каримов И.А. Ўзбекистон демократик тараққиётнинг янги босқичида. –Т.:Ўзбекистон, 2005. –144 б.; Каримов И.А. Жамиятимизни эркинлиштириш, ислохотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. –Т.15. –Т.:Ўзбекистон, 2005. –320 б.; Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. –Т.11 –Т.:Ўзбекистон, 2003. –320 б.; Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давом эттириш – тараққиётимизнинг муҳим омили. Президент Ислом Каримовнинг ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 18 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси.// Халқ сўзи, 2010 йил 8 декабрь; Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. – Т.: Ўзбекистон, 2010. –80.б.; Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлиси даги маърузаси. // Халқ сўзи, 2010 йил 13 ноябрь;

² Алимов Р.М. Центральная Азия: общность интересов. –Т.:Шарқ. 2005. –456 с.; Азимов М.М. Ўзбекистон ва Германия муносабатларининг ҳозирги кун ҳолати ва келажак истиқболлари. / Ўзбекистон ва халқаро ҳамжамият: интеграциялашувнинг сиёсий, ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари: илмий-амалий конференция материаллари тўплами: Тошкент, 2011 йил 24 март. –Т.:ТошДШИ, 2011. –Б.63-64.;Жўраев С. Замонавий халқаро муносабатлар. –Т.:Академия, 2007. –184 б.; Жўраев С. Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсати ва дипломатияси (ўқув қўлланма). – Т.:Академия, 2007. – 302 б.; Жўраев Т., Ақобиров С. Миллий манфаатлар ва миллий хавфсизлик. –Т.:Академия, 2007. –106 б.; Касымов А.М., Васькин И. Основные направления внешней политики Узбекистана. – Т.:Ўзбекистан, 1994. –165 с.; Одилқориев Х.Т., Очилов Б.Э. Ҳозирги замон халқаро ҳуқуқи. Дарслик. –Т.:ЖИДУ, 2002. –559 б.;С Мустапова Х.И. Ўзбекистон-Ҳиндистон муносабатларида Марказий Осиёда барқарорликни таъминлаш масалалари. // Ўзбекистон Республикаси Конституцияси - жамиятнинг барқарор ривожланиш кафолати: сиёсий, ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари: илмий-амалий конференция материаллари тўплами: Тошкент, 2010 йил 3 декабрь. –Т.: ТошДШИ, 2010. – Б.214-217.;аидолимов С., Жўраев С., Абдуғаниева З. Халқаро хавфсизлик. – Т.:Академия, 2007. – 148 б.; Сафоев С. Марказий Осиёда кечаётган геосиёсий жараёнлар ва минтақанинг ҳозирги дунё халқаро муносабатлар тизимида тугган ўрни // Халқаро муносабатлар. – 2005. –№3. –Б.4-9.; Умаров Х.П. Ўзбекистон Республикаси геосиёсий ҳолатининг геостратегик хусусиятлари. Сиёсий фанлар номзоди илмий даражаси учун диссертация автореферати. – Т., 2004. – 24 б. ; Хасанов У.А. Региональная безопасность и

Shuningdek, Antarktikaning jahon siyosatidagi ahamiyati, xalqaro huquqiy maqomi, Antarktika borasidagi davlatlar o'rtasidagi raqobat, ularning xalqaro munosabatlarga ta'siri L.I.Dubrovin, P.A.Kravchuk, V.V.Golisin, V.P.Klavdienko, N.Kosolapov, I.V.Komar, V.M.Kulagin, S.A.Lansova, Achkasova V.A., V.K.Lomakin, A.F.Tryoshnikov, V.N.Trofimov singari bir qator MDH hududida istiqomat qiluvchi olimlar¹ va I.Everson, S.Z.El-Sayed, G.E.Deacon, J.Lindley, S.Patricia, S.S.Joyner, M.N.Shaw kabi olimlar² tomonidan o'rganilgan va ularning ilmiy risolalarida mazkur muammo tahlil etib o'tilgan.

Shuningdek, bitiruv malakaviy ishni yoritishda internet manbalaridan ham keng foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining manbalari. Bitiruv malakaviy ishining manbalarida, avvalo, metodogik asos hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, ma'ruza va nutqlari, shuningdek mahalliy, MDH mintaqasida faoliyat yuritayotgan olimlar va xorijlik mutaxassis-olimlarining asarlari, chop ettirgan risola va ilmiy maqolalari tashqil etadi. Internet manbalarini shular jumlasidandir.

национальные интересы (Центральноазиатский регион). –М., 2004. –192 с.; Хакимова Н. Ҳиндистон ва Марказий Осиё минтақаси: ҳамкорлик истикболлари // Шарқшунослар анжумани. –Т. –№.5. –Б.102-107.

¹ Дубровин Л.И. Человек на ледяном континенте. –Ленинград: Гидрометеиздат, 1976. –336 с.; Кравчук П.А. Географический калейдоскоп. –Киев: Радянська школа, 1988. –219 с.; Голицын В.В. Антарктика: международно-правовой режим. –М., 1989. –348 с.; Клавдиенко В.П. Сырьевая составляющая устойчивого развития мирового сообщества // Вестник МГУ. – М. –№ 2. –С.23-39.; Косолапов Н. Безопасность международная, национальная, глобальная: взаимодополняемость или противоречивость // Мировая экономика и международные отношения. –2006. –№9. –С.3-13.; Комар И.В. Рациональное использование природных ресурсов и ресурсные циклы. –М., 1986. –372 с.; Кравчук П. А. Рекорды природы. – Любешов: Эрудит, 1993. –241 с.; Кулагин В.М. Международная безопасность. –М. АСПЕКТ ПРЕСС, 2007. –298 с.; Ланцова С.А., В.А.Ачкасова. Мировая политика и международные отношения: Учебное пособие / Под ред. – СПб.: Питер, 2009. –266 с.; Ломакин В.К. Мировая экономика: Учебник. –М.:Юнити, 2000. –381 с.; Общая теория национальной безопасности. // Под.ред. д.э.н. А.А.Прохожева. – М.:Издательство РАГС, 2005. –287 с.; Романова Э.П., Куракова Л.И., Ермаков Ю.Г. Природные ресурсы мира. –М., 1993. –421 с.; Трёшников А.Ф. История открытия и исследования Антарктиды. –М.:Географгиз, 1963. –332 с.; Трофимов В. Н. Правовой статус Антарктики. –М., 1990. –389 с.

² Everson I. Krill: Biology, Ecology and Fisheries. –N.Y.: Blackwell Science, 2000. –372 p.; El-Sayed S.Z. Southern Ocean Ecology: The BIOMASS Perspective. –L.:Cambridge University Press, 1994. – 399 p.; Deacon G.E. The Antarctic Circumpolar. –L.: Cambridge University Press, 1984. –180 p.; Joyner C.C. Antarctica and the law of the sea. –London, 1992. –348 p.; Lindley J. French Security Challenges for the Transatlantic Area. // Internationale Politik. –2011. –№2(Quart.2). –P.52-64.; Patricia C. The Classical Balance of Power Theory // Journal of Peace Research. –Vol.9. –№.1 –1972. –P.51-63.; Shaw M.N. International Law. –London, 2003. –486 p.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Bitiruv malakaviy ishida hozirgi davrda xalqaro munosabatlarda Antarktika muammosini ilmiy tahlil qilish va zamonaviy tendensiyalarini aniqlash maqsad qilib olindi.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Yuqorida ko‘zlangan maqsadni amalga oshirish uchun quydagi vazifalarni bajarish ko‘zda tutiladi:

- Zamonaviy geosiyosiy munosabatlar shakllanishida “kuchlar va manfaatlar” muvozanati tahlil etish;
- Geosiyosiy kategoriyalardan biri hisoblangan hudud va uning shakl va turlari aniqlash va zamonaviy geosiyosiy jarayonlarni tahlil etishdagi ahamiyatini o‘rganish;
- Antarktika maqomi o‘rnatilishining halqaro-huquqiy me‘yorlarini tahlil etish;
- Antarktikaga nisbatan mavjud hududiy da’volarni va ularning zamonaviy holatini o‘rganish;
- Davlatlar o‘rtasida Antarktika tabiiy resusrlaridan foydalanish muammosini tahlil etish.

Bitiruv malakaviy ishining ob’ekti. Xalqaro munosabatlar tizimida Antarktika muammosining vujudga kelishi va uning zamonaviy holati bitiruv malakaviy ish ob’ekti sifatida belgilandi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Hozirgi davrda davlatlar tomonidan Antarktikaga nisbatan yondoshuvlar, mazkur yo‘nalishdagi siyosati, qo‘llayotgan vosita va uslublari bitiruv malakaviy ishining predmetini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. So‘nggi yillarda xalqaro munosabatlarda Antarktika muammosi va unga nisbatan davlatlar yondoshuvi, uning asosiy tendensiyalarining ochib berilganligi ishning ilmiy yangiligini ko‘rsatadi. Shuningdek, bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: Antarktika halqaro huquqiy maqomining o‘rnatilishi tizimli tahlil etilgan; Bir qator davlatlarning mintaqaga nisbatan hududiy davolari va ularning xususiyatlari ochib berilgan; Antarktika tabiiy

resurslaridan foydalanish borasidagi davlatlar o'rtasidagi munosabatlar tizimli ravishda o'rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ishda tahlil etilgan voqealar va faktlar, xulosalar va boshqa bir qator masalalarga oid materiallar «Siyosatshunoslik», «Xalqaro munosabatlar» va boshqa gumanitar yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun ilmiy-amaliy qo'llanma sifatida qo'llanilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi kirish, ikki bob, besh paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

1-BOB. ZAMONAVIY GEOSIYOSIY JARAYONLARNI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI

1.1. “Kuchlar muvozanati” nazariyasi va unga doir zamonaviy yondoshuvlar

Kuchlar muvozanati xalqaro munosabatlarning eng qadimgi va eng davomiy konsepsiyalaridan biri hisoblanadi. Qudratli davlatlar dunyosida bu ishonchli strategiya hisoblanadi¹. Shu jihatdan “kuchlar va manfaatlar muvozanati” geosiyosiy munosabatlarning ajralmas qismi bo‘lib, har bir davrda jahon tartiboti holatini belgilab beruvchi asos hisoblanadi. Ko‘plab ilmiy tadqiqotlar “kuchlar muvozanati” konsepsiyasi mohiyatini tahlil etishga qaratilgan, biroq hozirgacha yagona ta’rif ega emasini kuzatish mumkin. “Muvozanat” tushunchasi fransuz tilidan (balance - bukʻ, vesi) olingan bo‘lib, jahon siyosati sub’ekti hisoblangan davlatlarning xalqaro maydondaga faoliyati tufayli odiga qo‘ygan maqsad va vazifalar bilan bog‘liq qudratining ustun va ojiz tomonlari majmuasi hisoblanadi². Mazkur muvozanatning asosini kuch va manfaat tashkil etadi.

“Kuch” tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, “Zamonaviy xalqaro munosabatlar” nomli atamalar lug‘atida quyidagicha ta’rif keltiriladi: “kuch” - 1) jismoniy ta’sir qilish, faol harakat qilish uchun jismoniy yoki ruhiya imkoniyat; 2) intilishning aniq me’yori bilan ajralib turuvchi biror faoliyatni ko‘rsatish qobiliyati; 3) kuch-qudrat, davlatning o‘zga maqsadiga erishishi uchun qo‘llaydigan siyosat va vositasining asosiy manbalaridan biri; 4) biror harakterli jihatga ega bo‘lgan kishilar; 6) qonuniy faoliyat³. Umumlashtirib olganda, kuch - bu davlatlarning

¹ [Paul T.V., James J. Wirtz, Fortmann M. Balance of Power: Theory and Practice in the 21st Century](http://www.foreignaffairs.com/articles/60299/g-john-ikenberry/balance-of-power-theory-and-practice-in-the-21st-century) // Инт.: <http://www.foreignaffairs.com/articles/60299/g-john-ikenberry/balance-of-power-theory-and-practice-in-the-21st-century> - 18.02.2009

² Баланс сил в мировой политике // Инт.: http://mirslovarei.com/content_pol/balans-sil-v-mirovoj-politike-4550.html

³ Сиёсий атамалар қўлланмаси: Халқаро муносабатлар (геосиёсат, дипломатия, хавфсизлик). – Т.: Академия, 2006. –Б.57

harbiy-iqtisodiy salohiyati, mintaqaviy va global yetakchilik qobiliyati bilan bog‘liq tushuncha sanaladi.

“Manfaat” – 1) amalga oshirishga undaydigan dalillar bilan asoslangan, tan olingan ehtiyojlar; 2) ijtimoiy harakatlarning real sababi. Manfaatning ob’ektiv asosi jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlar bilan belgilanadi; 3) shaxsning biror predmetga nisbatan qiziqarli, qadrli narsasi sifatidagi munosabati¹. Demak, manfaat davlatlar tashqi siyosatining asosini tashkil etib, tashqi siyosiy strategiyalar yo‘nalishi va mohiyatini belgilab berishga xizmat qiladi.

Davlatlar tashqi siyosatini tahlil etishda manfaatlarning uch kategoriyasini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Hayotiy muhim milliy manfaatlar (HMMM) – davlatning yashashi xavfsizlik va yashovchanlik uchun birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lgan manfaatlar bo‘lib, ularning himoyasi davlatning barcha vositalarini qo‘llashga, hatto kuch ishlatishga ham tayyor turishi kerak.

2. Muhim milliy manfaatlar – mamlakat aholisining yashab qolishini belgilamaydi, ammo mamlakat aholisining milliy farovonligiga ta’sir qiladigan manfaatdir.

3. Unchalik muhim bo‘lmagan manfaatlar – gumanitar va boshqa sohalarni qamrab oladigan manfaatlar².

“Britannik” ensiklopediyasida “kuchlar muvozanati – xalqaro munosabatlarda muayyan davlat yoki davlatlar guruhining o‘z kuchlarini boshqa davlat yoki davlatlar guruhining kuchlariga qarshi qo‘yish orqali o‘zlarini himoya qilish borasidagi xatti-xarakati va siyosati” deya ta’riflanadi³. “Zamonaviy xalqaro munosabatlar” nomli atamalar lug‘atida “kuchlar muvozanati” “kuchlar nisbati” shaklida bayon etilgan: “kuchlar nisbati – realizm doirasidagi konsepsiya bo‘lib, davlat milliy xavfsizlik masalalarini hal etish yo‘llarini ta’riflash bilan izohlanadi.

¹ Сиёсий атамалар қўлланмаси: Халқаро муносабатлар (геосиёсат, дипломатия, хавфсизлик). – Т.: Академия, 2006. –Б.

² Юлдашева Г.И. Халқаро муносабатларнинг методологик аспекти. –Т., 2009. –Б.165.

³ <http://www.britannica.com/EBchecked/topic/473296/balance-of-power>

Muvozanatga keltiruvchi tizim mamlakat milliy manfaatlarini boshqa mamlakatlar bilan qiyoslash orqali yaratiladi. Davlatlar o'rtasidagi tinchlik ushbu tizim doirasida davlatlararo kuchlar taqsimoti muvozanati sifatida tushuniladi"¹.

“Kuchlar muvozanati” atamasiga nisbatan berilgan ta'riflar ko'p tomonlama bo'lib, ular asosida atamaning muhim jihatlarini ko'rsatib berish mumkin. Jumladan Tadqiqotchi K.Patrisiya “Mumtoz kuyalar muvozanati nazariyasi” maqolasida “kuchlar muvozanati” nazariyasining asosiy jihatlari sifatida quyidagilarni keltiradi:

Birinchidan, ushbu konsepsiya davlatlarning bosh maqsadi o'z xavfsizliklarini ta'minlash ekanligi ko'rsatadi.

Ikkinchidan, davlatlar o'zlarini saqlash qolish maqsadida tenglikka intiladilar. Davlatlar muayyan bir davlatning ustunligiga yo'l qo'magan holda boshqa davlatlari bilan to tenglik ta'minlanmaguncha ittifoq tuzishadilar².

Professor K.Uolts ushbu jihatlarni aniqroq ochib berishga intilib, “Xalqaro siyosat nazariyasi” asarida kuchlar muvozanati nazariyasining mazkur jihatini ajratib ko'rsatadi:

1. Davlatlar xalqaro munosabatlar aktorlari sifatida eng kamida o'zlarining yashab qolishiga va eng yuqorida darajada esa umumjahon miqiyosida gegemonlikka intiladilar.

2. Davlatlar o'z maqsadlariga ham ichki muvozanat (iqtisodiy va harbiy salohiyatni yuksaltirish asosida), ham tashqi muvozanat (ittifoqlarni yuzaga keltirish) orqali erishishga xarakat qiladilar³.

“Kuchlar muvozanati” atamasi 1713 yil Utrixt Shartnomasidan so'ng keng miqiyosda doktrina sifatida qo'llanila boshlansada, amaliyotda uzoq o'tmishga ega. Shu bois jahon siyosiy tizimida kuch muvozanati rivojlanishining quyidagi tarixiy shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin.

¹ Сиёсий атамалар қўлланмаси: Халқаро муносабатлар (геосиёсат, дипломатия, хавфсизлик). – Т.: Академия, 2006. –Б.60

² Қаранг. Patricia C. The Classical Balance of Power Theory // Journal of Peace Research. –Vol.9. –№.1 –1972. – P.51. – Инт.: <http://www.jstor.org/stable/422972>

³ Waltz K. N. Theory of International Politics. –NY.: Random House, 1979. –P.116-128

1. Nodoiimiy kuchlar tengiligi mavjudligi. Ushbu tarixiy shakl qadimgi davrdan boshlanib 15-16 asrlarga qadar mavjud bo'lgan. Bu davrda davlatlarning kuchlar tengligini saqlashga urinishlari tizimli va puxta tashkiliy jihatlarga ega bo'lmagan.

2. Kuchlar muvozanatini saqlash bo'yicha davlatlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlar tizimining shakllanishi. 15-16 asrlardan boshlab markazlashgan davlatlarning yuzaga kela boshlashi, ularning dastlab Yevropa mintaqasida so'ngra jahonda yetakchilik uchun kurashi boshlashiga olib keldi. Mazkur kurashlar mavjud tizimlarni barbod etib, mintaqaviy va jahon siyosatida kuchlar tengligini ta'minlash uchun turli davlatlararo kelishuvlarni amalga oshirdilar. Ular orasidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: Vestfal tinchlik shartnomasi (1648), Utrixt bitimi (1713), Vena kongressi xujjatlari (1815), Versal-Vashington tizimi (1919-1922), Yalta-Potsdam kelishuvi (1945).

3. Manfaatlar muvozanati tizimi yuzaga kelishi. XX asr davomida siyosiy fanda jahon yetakchi kuchlarning o'zaro siyosiy ta'sirining ortib borishi manfaatlar muzonatining shakllanishiga olib kelayotganligi borasida qarashlar shakllandi. Biroq murakkab xalqaro muammolarni hal qilish kuch siyosatining takrorlanishiga olib kela boshladi¹. –

Bundan tashqari kuchlar muvozanatini falsafiy anglash mavjud bo'lib, asosiy e'tibor kuchlar muvozanatini jamiyat xolati va davlatlar, xalqlar o'rtasidagi munosabatlar bog'liqligi sifatida tadqiq etishga yo'naltirilgan. Falsafiy anglashining uchta yondoshuvini ajratib ko'rsatish mumkin:

– Gumanistik yondoshuv. U kuchlar muvozanatining aniq tarixiy tahliliga asoslangan, urush va tinchlik jamiyat holatining qarama-qarshi holati bo'lishiga qaramay o'zida ular orasidagi bog'liqlikni aks ettiradi. Ularni birlashtiruvchi xalqa sifatida siyosat maydonga chiqadi. Aynan siyosat tinchlik va urushni amalga oshiradi. Biroq, tinchlikning urushdan aniq farqi shundaki, tinchlik o'z mohiyatiga

¹ Баланс сил в мировой политике // Инт.: http://mirslovarei.com/content_pol/balans-sil-v-mirovoj-politike-4550.html

ko‘ra kuch ishlatmaslik vositalarini davom ettirish siyosati hisoblanadi. Gumanistik yondoshuv tarafdorlari tinchlikda insoniyat taraqqiyotining muhim shart-sharoitlari va vositalarini, uning demokratik jamiyat barpo etishdagi imkoniyatlariga e‘tibor qaratishadi, urushda – esa insoniyat va tabiatning vayron etish vositalarini ko‘radilar.

– Pasifistik (tinchlik) yondoshuv. Ushbu yondoshuv vakillari kuchlar muvozanatining zaruriyati va imkoniyatini tan olishadi, biroq ular kuchlar muvozanatining siyosiy mohiyatini ochib berishmagan. Ular tinchlikni “diniy inqilob” natijasi sifatida e‘tirof etishib, tinchlikka erishish insoniyat taraqqiyoti va har qanday kuch ishlatish vositalaridan voz kechgan holda erishish mumkinligini ta’kidlashadi.

– Konservativ yondoshuv. Mazkur yondoshuv vakillari kuchlar muvozanatining insoniyat uchun hech qanday ahamiyati yo‘qligini ta’kidlashadi va kuchlar muvozanati urushlar (jahon, mahalliy, diniy va boshqalar) o‘rtasidagi vaqtinchalik to‘xtalish sifatida namayon bo‘ladi deb hisoblashadi. Tinchlik, ularning fikricha, qudratli davlatlarning qarashlari orqali aniqlanadi. Ular jahondagi xalqlarning tinchlikka intilishlarini tadqiq etgan holda, yondoshuv vakillari xalqaro munosabatlarda barqarorlikni ta’minlashda qurolli kuchlarning zaruriyatini ko‘rsatib o‘tishgan¹.

Shuningdek, “kuchlar muvozanati” shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, ularning hududiy miqiyosiga ko‘ra ham tasniflarga ajratish mumkin. Kuchlar muvozanatining barqarorlik holatiga ko‘ra quyidagi ko‘rinishga bo‘linadi:

1. Mustahkam bo‘lmagan kuchlar muvozanati. Mazkur kuchlar muvozanati o‘zda urush xavfini namoyon etadi. Uning ayrim jihatlarini “sovuq urush” davrida kuzatish mumkin, qurollanish poygasining avj olishi, harbiy tayyorgarlik va kuchlarni namoyon etish, jamiyat hayotini harbiylashtirishga intilish shular jumlasidandir.

¹Концептуальные взгляды на баланс сил в мировой политике // Инт.: <http://www.xserver.ru/user/pbsmp/1.shtml>

2. Mustahkam (barqaror) kuchlar muvozanati. Ushbu muvoznatda urush kelish chiqib xavfi nisbatan kamroqdir. U davlat va xalqlar o'rtasidagi diplomatik, iqtisodiy, madaniy va harbiy munosabatlarni muvaffaqiyatli rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Davlatlar o'rtasidagi har tomonlama munosabatlarda o'zaro ishonch ortib boradi. Ushbu holat XX asrning 80 yillar so'ngida kuzatila boshladi.

Hududiy qamroviga ko'ra kuchlar muvozanatini uch xil turga ajratish mumkin:

- Chegaraviy kuchlar muvozanati (Pogranichniy balans sil). U umumiy chegara va yaxshi qo'shnichilik munosabatlariga ega davlatlarni ifodalaydi. Yevropada mazkur kuchlar muvozanatining namunasini Fransiya va Germaniya misolida ko'rish mumkin.

- Mintaqaviy kuchlar muvozanati. U o'ziga xos davlatlar guruhi bo'lib, uning ishtirokchilari bevosita umumiy chegaraga ega bo'lib, o'zaro tinchliksevar munosabatlari bilan ajralib turishadi. Masalan, zamonaviy davrda Uzoq Sharq, G'arbiy Yevropadagi davlatlarni keltirish mumkin.

- Global kuchlar muvozanati. Uning ustinlik qiladigan xususiyati jahon urushining inkor etilish bilan ifodalanadi. Biroq, mahalliy urushlar va chegaraviy nizolarni rad etilmagan¹.

Markaziy Osiyodagi geosiyosiy vaziyat bu yerdagi kuchlar muvozanatiga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan ekanligini nazardan qochirmagan holda, bevosita bu hududdagi davlatlar qudrati, muammolari va ular olib borayotgan siyosatni tahlil etishga harakat qilamiz.

Markaziy Osiyodagi muvozanatga bevosita ta'sir etishdan manfaatdor bo'lgan. Rossiya oldida bir tarafdin ichki ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etish, ikkinchi tarafdin, ilgari siyosiy mavqeini tiklashdek ulkan va murakkab vazifa turibdi. Rossiyaning Yevroosiyodagi asosiy geosiyosiy "o'yinchi" ekani uning yuqoridagi vazifalarni muvaffaqiyat bilan amalga oshirishiga bog'liq. Rossiyaning ichki ishi bo'lib ko'ringan ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi masalalar uning

¹Концептуальные взгляды на баланс сил в мировой политике // Инт.: <http://www.xserver.ru/user/pbsmp/1.shtml>

Yevroosiyoda geosiyosiy muvozanatning buzilishiga yoki aksincha saqlanib qolishi va hatto kuchayishiga ham ta'sir etadi. Rossiya o'z muammolarini hal etish uchun zarur bo'lgan vaqtni qo'ldan boy bermaslik uchun avvalo MDH hududida tinchlik saqlanib turishidan manfaatdordir. Ayni paytda, Rossiya G'arb ta'siriga tushib qolayotgan MDH davlatlarini o'z ta'sir doirasida saqlab turishga ham harakat qiladi. Ammo Rossiya o'z muammolariga qorishib yotgan bir paytda Boltiqbo'yi davlatlari butunlay Yevropa va NATO tarafiga o'tib ketdi, Ukraina va Gruziya ham shu yo'ldan bormoqda. Markaziy Osiyoda esa O'zbekistondan tashqari barcha davlatlar muayyan tashqi ta'sirga dosh berish yoki xalos bo'lishi qiyin kechmoqda.

Rossiyaning MDH davlatlari manfaatlariga mos ravishda tashqi siyosat olib borishiga ta'sir qiluvchi ikki xil omil mavjud. Biri sobiq sho'rolar tizimidan qolgan va Yelsin davrida yanada murakkablashgan ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi ichki muammolar bo'lsa, ikkinchisi G'arbning Rossiyani parchalab tashlashni ko'zda tutgan intilishlari bilan bog'liq. Ichki va tashqi muammolarni quyidagicha tavsiflash mumkin¹:

Ichki muammolar:

- davlat boshqaruv tizimini to'liq egallab olgan korrupsiya;
- iqtisodiy jinoyatlar;
- eski tuzumdan qolgan va hozirgacha bartaraf etish imkoni bo'lmagan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar;

Tashqi omillar:

- Rossiyaning ta'sir doirasini toraytirishga qaratilgan NATOning Sharqqa kengaytirilishi, "rangli inqiloblar"ni amalga oshirish orqali G'arb ta'siridagi "bufer" davlatlarni shakllantirish;
- xalqaro terroristik guruhlarini qo'llab-quvvatlash orqali ayirmachilik kayfiyatlarini kuchaytirish;
- Transmilliy korporatsiyalar vositasida Rossiyaning xom ashyo

¹ Жалилов А., Туленова Г. Геоэиёсат. Услубий кўлланма. –Т., 2008. –Б.68-69.

zaxiralariga egalik qilish;

- Rossiyada demokratik islohotlarni, fuqarolik jamiyati tamoyillarini joriy etish mamlakat milliy yaxlitligiga xorijiy nodavlat notijorat vakolatxonalarini ochish yoki shunday tashkilotlarni tashkil etish va qo'llab-quvvatlash.

Demak, Rossiya jo'g'rofiy xususiyatlari, maydonining kattaligi, tabiiy zaxiralarining ko'pligiga qaramasdan qator ichki muammolarning hal etilmagani bois Yevroosiyo strategik muvozanatini bir o'zi saqlab qolishi mumkin emas. Buning uchun MDHdagi barcha davlatlarning birligi, bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishi talab etiladi. Boshqacha aytganda, bu kabi murakkab masalaning hal etilishi MDH davlatlari, jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi ichki barqarorlik va ular olib boradigan tashqi siyosatiga ham bog'liqdir. Shu ma'noda, Markaziy Osiyo davlatlarining Yevroosiyodagi strategik muvozanat masalasiga nisbatan geosiyosiy pozitsiyasiga to'xtalish maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Kavkaz mintaqasi ham Yevroosiyodagi Yangi tartibda faol ishtirok etayotgan mintaqasi hisoblanadi. Gruziya Rossiyaning azaliy hamkori bo'lsa-da, mustaqillik yillarida bu mamlakat iqtisodiy imkoniyatlarining cheklanib qolishi uni Rossiyaning raqibiga aylantirdi. G'arb bu mintaqada o'ziga sherik sifatida Gruziyani tanlagani bejiz emas. Bundan tashqari, Gruziyada Rossiya bilan bo'lgan Shimoliy Osetiya va Abxaziya deb atalgan "olovli nuqta"lar mavjud bo'lib, ularni ishga solish, avvalo Rossiyani tashvishga solish, kezi kelganda esa Gruziyaning o'ziga ham qarshi ishlatilishi mumkin. Kezi kelganda deganda, bu yerda Gruziyaning o'zi bir kun kelib G'arbga qarshi bo'lib qolgan taqdirda millatlararo negizda fuqarolar urushini boshlash ehtimoli nazarda tutilmoqda. Rossiya esa bevosita o'z milliy manfaatlari chegarasida ro'y beradigan bunday jarayonlarga qarab tura olmaydi va albatta Gruziyaning G'arbga qarshi chiqishi uchun qo'lidan kelgan barcha imkoniyatlarini ishga soladi.

Gruziya G'arb bilan yaqin hamkorlikka kirishmasdan ilgari Yevroosiyo strategik muvozanatida katta ahamiyatga ega emas edi. Ammo bunday sherikchilik bu davlatning Kavkaz mintaqasidagi strategik ahamiyatini keskin oshirib yubordi.

Boshqacha aytganda, biror bir strategik ashyoga ega bo'lmagan kichkina bir davlat to'satdan, qariyb bir asr hamkorlik qilib kelgan Rossiya qo'shinlarini o'z hududidan haydab chiqardi va uning strategik raqibiga aylandi. Bunga albatta Gruziyada amalga oshgan "rangli inqilob" sabab bo'ldi. Ammo bu inqilob Gruziyani Rossiyaga qarshi raqibga aylantirishidan tashqari, Gruziya xalqiga na ijtimoiy-iqtisodiy hayotda na demokratiyani rivojlantirishda biror bir naf keltirganini aytish qiyin.

Shunday qilib, mamlakatimiz atrofida kechayotgan geosiyosatda hudud va kuch hodisasi o'ziga xos ahamiyatga ega. Yetakchi kuchlarning Markaziy Osiyodagi geosiyosatiga qarshi tura oladigan tuzilmalarning kuchayishi, mintaqadagi davlatlarning izchil va qat'iy tashqi siyosati, Yevroosiyoga yo'nalgan aniq pozitsiyasiga ko'proq bog'liq ekani namoyon bo'lmoqda. Aks holda bu hududda geosiyosiy vaziyat tubdan o'zgarishi va yangi strategik tartibot vujudga kelishi mumkin. Bunday holatda milliy birligini saqlab qolgan, o'z milliy manfaatlariga tayangan holda, aniq va izchil siyosat yuritgan davlatgina uzluksiz rivojlanadi. Har qanday holatda ham Yevroosiyodagi strategik muvozanatning tashqi kuchlar nazoratida qolishi mahalliy xalqlar uchun jiddiy sinov bo'ladi. Bunday murakkab holatni oldini olish uchun mintaqadagi vaziyatning barqarorlashuviga xizmat qiladigan ShHT singari tuzilmalar faoliyatining takomillashtirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratish zarur¹.

Ta'kidlash joizki, zamonaviy davrda Markaziy Osiyodagi barqarorlik holati, mintaqada kechayotgan geosiyosiy jarayonlar bevosita "kuchlar muvozanati" bilan bog'liq. Markaziy Osiyo mintaqasi XIX asrdan boshlab jahoning yirik davlatlari manfaatlari to'qnishib kelayotgan mintaqalar biri hisoblanadi. Bugungi kunda ham Markaziy Osiyo dunyo miqyosidagi va mintaqaviy yetakchi davlatlarning bevosita manfaatlari doirasiga kiradi. Ularning barchasi mintaqada

¹ Жалилов А., Туленова Г. Геоиёсат. Услугий қўлланма. –Т., 2008. –Б.69-70.

o‘z geosiyosiy ishtirokini ta‘minlash va bu yerda o‘z siyosiy, iqtisodiy, harbiy-strategik manfaatlarini ilgari surishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘ygan¹.

Bu esa kelgusida mintaqda barqarorlikni saqlash, transmilliy tahdidlarga qarshi kurashish va integrasion jarayonlarni jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, “kuchlar muvozanati” geosiyosiy jarayonlar asosini tashkil etib, mazkur konsepsiya o‘zida bevosita “manfaatlar muvozanati” ham qamrab oladi. “Kuch” mamlakat milliy xavfsizligini mintaqaviy va global miqyosda ta‘minlash vositasi sifatida namoyon bo‘lsa, “manfaat” davlat o‘rtasidagi muvozanat tizimini shakllantiruvchi omil hisoblanadi. Shu bois “kuchlar muvozanati” konsepsiyasi aynan siyosiy realizm doirasida shakllanib, davlatlar kuchlar muvozanatini ta‘minlash sharoitida ikki turdagi siyosat olib borishini kuzatish mumkin: 1. o‘zlarning kuch-qudratlarini oshirish orqali: qurollanish poygasi va hududlarni bosib olish borasidagi musobaqa; 2. o‘z kuchlarni boshqa davlatlar bilan birlashtirish, u ittifoqchilik siyosati yuritish orqali. Shu jihatdan zamonaviy davrda xalqaro munosabatlar tizimining holatini aniqlash va istiqbolini bashorat qilishda yetakchi davlatlar manfaatlarini aniqlash, strategik kursini tadqiq etish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

1.2. Hudud – geosiyosiy kategoriya, shakl va turlari

Geosiyosiy kategoriyalardan biri hudud bo‘lib, mazkur kategoriya mohiyatini anglash, avvalo, “geosiyosat” mohiyatini, uning kelib chiqishi va nazariy yondoshlarni anglash zarur. Geosiyosatning tarixi ancha murakkab bo‘lganligi tufayli uning fan sifatidagi taqdiri ham mavhumdir. Bir tomondan, tushunchaning o‘zi hozirgi siyosatda faol qo‘llanilayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan geosiyosiy jurnal va institutlar ko‘payib bormoqda. Ushbu fan asoschilarining asarlari qayta-qayta nashrdan chiqmoqda, konferensiyalar, simpoziumlar o‘tkazilmoqda,

¹ Сафоев С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. –Т.:ЖИДУ, 2005. –Б.26

geosiyosiy qo'mitalar va komissiyalar tuzilmoqda. Lekin, shunga qaramasdan, hozirgi kungacha geosiyosat ilmiy hamjamiyat tomonidan tan olingan fanlar sirasiga kira olmagan. Nemis olimi F.Ratsel, shved geografi R.Chellen va asosan, ingliz geografi X.Makkinderning geosiyosatga oid ilk asarlari olimlar tomonidan keskin tanqidga uchradi. Ilk pozitivizmning o'ta tanqidchilik ruhini to'laligicha o'ziga meros qilib olgan mumtoz (klassik) ilm-fan "geosiyosat o'ta cheksiz umumlashmalarga moyil ekanligini ta'kidlab uni "qalloblikning" navbatdagi bir turi deb hisoblagan edi.

Qaysidir ma'noda, geosiyosatning fan sifatidagi bunday achinarli taqdiri masalan,ing siyosiy tomoni bilan ham bog'liq bo'lganligini ta'kidlash zarur. Chunki ushbu fan negizida Uchinchi Reyxning harbiy jinoyatlari hisoblangan bosqinchilik, ommaviy qirg'inlar, ko'chirishlar va boshqa urush harakatlari go'yoki nazariy jihatdan nemis geosiyosatchilari tomonidan uydirmalar bilan to'lib toshgan ilm sifatida tayyorlanib Gitlarga taklif etilgan, degan fikrlar shakllangan edi. (Bu yerda avvalambor fyurerga bir vaqtlar juda yaqin bo'lgan nemis geosiyosatchisi Karl Xausxofer nazarda tutilgan). Lekin nemis geosiyosati nazariy darajasi jihatidan anglosakson (Makinder, Mexen, Spikmen) va fransuz (Vidal de la Blansh) geosiyosati hamda rus "harbiy geografiyasi"dan (Milyutin, Snesev) hech qanday farq qilmagan. Bu yerda farq Xausxoferning mantiqiy hamda ushbu fanga g'oyatda mos bo'lgan fikrlarida emas, balki uning tomonidan ishlab chiqilgan qator qoidalarni tadbiq etishdagi usullardadir. Bundan tashqari, 30-40 yillardagi Germaniyaning xalqaro siyosati Xausxofer g'oyalariga batamom qarama-qarshi edi. Chunki Berlin-Moskva-Tokio yo'nalishidagi "kontinental blok" o'rniga Sovet Ittifoqiga hujum qilish, Lebensraum doktrinasidagi «hayotiy muhim hududlar»ni (Shmidtning "xalqlar huquqlari" nazariyasi ruhiga mos ravishda) birlashtiruvchilik shaklida tushunish o'rniga millatchilik, imperializm va boshqalar. Shuni ta'kidlash joizki, rus olimi A.Duginning yozishicha Xausxofer yaratgan maktab va uning "Zeitschrift fur Geopolitik" nomli jurnali hech qachon

rasmiy nasist tizimining tarkibiy qismi bo'lmagan¹. Uchinchi Reyxdagi konservativ inqilobchilar deb ataladigan ko'pgina intellektual guruhlar singari ular ham ikki xil mazmunda faoliyat olib borishgan. Ularning bunday mazmundagi faoliyatiga toqat qilishsada, bunday munosabat siyosiy vaziyatga bog'liq bo'lib, har daqiqada o'zgarishi mumkin edi. Biroq, geosiyosatni fan olamiga kiritmaslikning eng asosiy sababi ushbu nazariya davlatlarning jug'rofiy hukmronlikka intilishlarini, boshqacha aytganda kuchli davlatlar tomonidan turli hududlarni egallash mexanizmlarni juda ham ochiq-oydin ko'rsatib berishi edi. Turli tabiatga ega bo'lgan siyosiy tizimlar bo'lsa, bunday mexanizmlarni ochiqdan ochiq emas, balki turli-tuman mavhum iboralar yoki o'ziga xos g'oyaviy dasturlar orqali ifodalashni istashar edi. Bu ma'noda, geosiyosatning mohiyati va maqsadlarini marksizm bilan qiyoslash mumkin.

Lug'atlarda «Geopolitika» so'zini birinchi marotaba shved olimi R.Chellen ilgari surganligi aytilib o'tiladi. Biroq, mazkur tushunchani «geopolitika» deb atamagan bo'lsada, birinchi bo'lib Fridrix Ratsel (1844–1904) ishlab chiqqan va amaliyotga kiritgan. F. Ratsel o'z asarlarida «siyosiy geografiya» iborasini qo'llagan. Uning 1897 yilda nashr yuzini ko'rgan ishlaridan biri ham aynan «Politische Geographie» deb nomlangan.

F.Ratsel o'zining «Siyosiy geografiya» asarida tuproqni xalqlarning manfaatlarini tashkil etuvchi, uni ifodalovchi asosiy manbaa sifatida ko'radi. Tarixning rivojlanishida tuproq va hudud asosiy o'rinni egallaydi, degan fikrni ilgari surib, Davlatni «tuproqda ildiz otgan» «tirik organizm», deb xulosa qiladi. Davlat hududiy relef va masshtabning xalq tarafidan mushohada qilinishi natijasida yuzaga keladi. Shunday qilib, «Davlat» tushunchasida jo'g'rofiy borliq va shu borliqning sub'ektiv umummilliy anglash natijasida siyosatda aks etishi namoyon bo'ladi. Ratsel «Tabiiy Davlat» o'z ichida millatning jo'g'rofiy, demografik va milliy madaniyat parametrlarini qamrab olganligini aytib o'tadi².

¹ Qarang. Дугин А. Основы геополитики. –М.:Аркогея,1997., стр.68-72.

² Ratzel F. Politische Geographie. –Berlin Einleitung, 1887. –S.36-41.

«Davlatlar o‘z taraqqiyotlarining barcha davrlarida o‘z zaminlari bilan bog‘liqliklarini saqlab qolish zaruratiga ega o‘ziga xos organizm sifatida qoraladi va shu bois jo‘g‘rofiy nuqtai–nazardan o‘rganilishlari lozim. Etnografiya va tarixning shohidligicha, davlatlar hududiy kengliklarda taraqqiy topib, hudud bilan uzviy bog‘lanadi va u bilan birlashib boradi, undan kuch–quvvat oladi. Shunday qilib, Davlatlar hududiy ko‘rinish shakliga ega bo‘ladi, hudud tarafidan boshqariladi va u tarafidan jonlantirib turiladi; va, albatta, bu jarayonlarni taqqoslash, o‘rganish geografiya zimmasidadir. Davlatlar Hayot ko‘rinishlarning yuqori cho‘qqisi bo‘lib, tajovuzning asosiy, tarkibiy qismidir».

Davlatga tirik organizm sifatida qarash «muqim chegaralar» konsepsiyasidan voz kechishga olib kelishi mumkin. Davlat tirik organizm singari «tug‘iladi», «o‘sadi» va «halok» bo‘ladi. Shu bois, uning kengayishi yoki qisqarishi tabiiy bo‘lib, o‘zining ichki hayotiy doirasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ratsel bu borada o‘zining «Davlatlarning hududiy kengayish qonuniyatlari borasida» asarida (1901) ekspansiyaning 7 qonuniyatlarini ko‘rsatib beradi:

1. Davlatlar o‘z madaniyatlari taraqqiyotiga mutanosib kengayib boradi;
2. Davlatning hududiy kengayishi taraqqiyotning o‘zga ko‘rinishlari bilan – mafkura, ishlab chiqarish, tijorat faoliyati, kuchli «tortish kuchi» bilan, prozelitizm (o‘z dini yoki e’tiqodini yoyishga intilish) yo‘nalishlarida ham olib boriladi;
3. Davlatlar kichik hajmdagi «siyosiy birliklar»ni singdirish va yutish hisobiga kengayadilar;
4. Chegara «organizm» sifatidagi Davlatning periferiyada joylashgan a’zosi;
5. Davlat hududiy ekspansiyani amalga oshirar ekan taraqqiyotiga daxldor muhim yerlarni – qirg‘oq oldi va daryo o‘zanlariga yaqin joylarni, vodiylar va foydali qazilmalarga boy hududlarni qo‘lga kiritishga intiladi;
6. Kengayishga asos bo‘luvchi turtkini chetdan kuzatish mumkin, ya’ni Davlatlar o‘ziga nisbatan past sivilizatsiyalar tarafidan uyushtirilgan «ig‘vo» natijasida ma’lum bir makonni egallab oladilar;

7. «Zaif» xalqlarning singdirilish yoki assimilyatsiya qilish jarayoni o‘zini–o‘zi ta’minlab bergan holda hududini yanada kengaytirishiga turtki beradi¹.

Har bir davlat ma’lum hudud ustidan ma’lum mezonlarga tayangan holda o‘z nazoratini o‘rnatadi. Mazkur jarayon hukumatning muayyan ijtimoiy qatlamga tayangan holda faoliyat olib borishni talab etadi. Zero, jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayoti ishtirokchilarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy voqe’likka munosabatlarini tadqiq qilish bugungi kunda muhim masalalar sirasidan o‘rin olmoqda. Zero, har bir shaxsning, individning ijtimoiy-siyosiy masalalarni psixologik jihatdan qabul etishi masalasi yuritilayotgan siyosat masalasi bilan bevosita bog‘liq.

Davlatning asosiy vazifalaridan biri ma’lum bir hudud ustidan o‘z nazoratini (qonun, kuch yoki jinoiy yo‘l orqali) o‘rnatish bo‘lib, asosan milliy-madaniy, diniy va boshqa asoslarga tayanadi. Shuningdek, davlat ma’lum bir hududdagi ma’lum bir qatlam yoki qatlamlar (diniy, milliy, etnik, madaniy jihatdan) manfaatlarini xalqaro maydonda ifoda etib, ularni himoya qiladi.

Geosiyosat tadqiqotining asosini hududlar tashkil etar ekan uning turlari, hududlar ustidan qay yo‘sinda nazorat o‘rnatish masalasi oldinga chiqadi. Zero, har bir davlat siyosatining ustivor vazifalar sirasiga hududlar turlaridan kelib chiqqan holda ular ustidan nazorat o‘rnatish kiradi.

Z.Bjezinskiy «Buyuk shohmot taxtasi» nomli asarida davlatlarga nisbatan «geosiyosiy markazlar» va «geostrategik ishtirokchilar» iboralarini kiritadi². Ushbu asarda mazkur atamalar quyidagicha ta’riflanadi:

«Geosiyosiy markazlar» - bu shunday davlatlarki, ularning ahamiyati ularning salohiyati yoki mazmunidan emas, balki ularning joylashishlari va tabiiy jihatdan yuzaga keladigan potensial zaiflik oqibatida geostrategik ishtirokchilarga imkoniyat tug‘dirib beradigan omillar bilan belgilanadi. Ko‘pincha geosiyosiy markazlar o‘zlarining geografik holatlariga bog‘liq bo‘lib, yo muhim mintaqalarga eltuvchi yo‘l ustidan nazorat o‘rnatish, yoinki geostrategik ishtirokchilarga

¹ Ratzel F. Ueber die Gesetze des räumlichen Wachstums der Staaten. –Berlin Einleitung, 1901. –S.147-62.

² Бжезинский З. Великая Шахматная доска. Господство Америки и его геостратегические императивы. –М.: Международные отношения, 1999. –С.56-57.

resurslarga ega bo'lishlarida to'sqinlik qilish imkoniyati bilan belgilanadi. O'zga hollarda esa geosiyosiy markazlar geosiyosiy doirada muhim ahamiyat kasb etuvchi mintaqa yoki davlat uchun «qalqon» (bufer) bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ba'zi hollarda esa geosiyosiy markazlar mavjudligining o'zi ham atrofdagi faol geostrategik ishtirokchilarga siyosiy va madaniy jihatdan sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Shuni ham aytib o'tish joizki, geostrategik ishtirokchilarning aksariyat qismi qudratli davlatlar hisoblanadilar. Biroq qudratli davlatlarning hammasi ham geostrategik ishtirokchilar qatoridan o'rin ololmaydi.

«Faol geostrategik ishtirokchilar» - o'z chegaralaridan tashqarida hukmronlik qiluvchi yoki mavjud geosiyosiy holatni o'zgartira olish yo'lida qobiliyat va milliy irodaga ega bo'lgan davlatlar kiradi. Ular salohiyat va/yoki geosiyosiy jihatdan beqarorlikka moyilliklari bilan ajralib turadilar. Ya'ni milliy buyuklik, mafkuraviy tatbiqlik, dinini yoyishi yoki iqtisodiy buyuklik orqali mintaqada yetakchi kuchga aylanishi yoki dunyo miqyosida o'z mavqeini yanada oshirishga intiladilar. Bu yo'l bilan har bir davlat o'zga davlat salohiyatiga tanqidiy yondoshish orqali o'z manfaatlarining shu davlat manfaatlari bilan qay mezonlarda mos kelishi yoki kelmasligini e'tiborga olgan holda ishlab chiqadi.

Ma'lum bir makon ustidan nazorat o'rnatishda, avvalo, shu makon xususiyatlaridan kelib chiquvchi turlariga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Chunki har bir makon o'ziga xos bo'lib, iqtisodiy, ijtimoiy va harbiy salohiyatlarining o'sishi va taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq.

Qalqon hudud (asosan davlat) - yirik davlatlar ta'sir doiralari yoki hududlari o'rtasida joylashgan, odatda hududi kichik, siyosiy va harbiy jihatdan esa kuchsiz mamlakat.

Amerikalik olim qalqon davlatlarga quyidagicha ta'rif beradi: «Davlatlarning o'zi qalqon (bufer) bo'lish yoki bo'lmaslikni tanlamaydilar. Ularning bu holati o'zlari nazorat eta olmaydigan dushmanona atrof-muhitdan kelib chiqadi. Qalqon davlatlar - ancha qudratliroq, ambisioz va asosan agressiv tashkilotlar (davlatlar) o'rtasida joylashgan ojiz o'yinchilardir. Qalqon davlatlarning vazifalari mazkur

tashqi raqiblar tarafidan belgilab beriladi. Ular mohiyatan katta raqobatning qurbonlik elementlaridir. Qalqon davlatlar xalqaro huquqning emas, balki kuchlar mutanosibligi tizimining qismi hisoblanadilar. Biroq, ma'lum sharoitlarda, ya'ni mintaqaviy munosabatlar modeli keskin o'zgargan chog'da, qalqon davlatlar yirik davlatlar o'rtasida vaqtinchalik muvozanatni saqlaganliklari uchun birinchi qurbonga aylanadilar»¹.

Endemik hudud (gr. endemos - mahalliy) - bu hududda biror-bir xalq azal-azaldan istiqomat qilgan bo'lib, shu hudud ularning nazorati ostida bo'lganligi, shuningdek, o'zga xalqlar ham bu hudud aynan shu xalqning hududi deb tan olingan makonga aytiladi.

Chegaradosh hudud - bu hudud biror-bir davlatga tegishli, lekin unda iqtisodiy tomondan aloqa tizimining tiklanmaganligi va boshqa shu kabi sabablar orqali mustahkam o'rnatib ololmagan bo'lishi, qolaversa bu hududda istiqomat qiluvchi kam sonli millatlar o'z da'volarini ko'tarib chiqishlari mumkin bo'lgan makon. Chet davlatlarning bu hududga hech qanday da'volari bo'lmaydi. Lekin chegaradosh hududda nazoratning sustligi chet davlatlarning unga bo'lgan qiziqishini oshirishi va bu hudud ustidan qay yo'sinda bo'lmasin nazorat o'rnatishga intilishlarini keltirib chiqaradi.

Kesishgan manfaatlar hududi - bunday hududga ikki yoki undan ortiq davlatlar da'vo qiladilar. Bu hudud ham yaxshi o'zlashtirilmaganligi sababli endemik tushunchasiga yaqin, shunga qaramay chegaradosh hududdan: birinchidan, ushbu davlatga yaqin emasligi, balki o'zga davlatning endemik qismida, ya'ni o'zga davlat hududida joylashgan bo'lishi, va, ikkinchidan, ikki va undan ortiq davlatlar tarixiy, milliy, diniy jihatlariga asoslangan holda shu hududga da'vogarlik qilishlari bilan farqlanadi.

Tasarrufiy hudud - biror-bir davlat yoki millat tomonidan to'liq nazorat qilinadigan va shu davlat yoki millat tasarrufidagi bir-biriga tutash bo'lgan

¹ Ziring L. Buffer States on the Rim of Asia: Pakistan, Afghanistan, Iran and the Super-powers. / Soviet-American Relations with Pakistan, Iran and Afghanistan. -L., 1987. -P.23.

hududga deyiladi. Tasarrufiy hududni faqat barcha aloqa yo'llarini egallash orqali to'liq nazorat qilish mumkin.

Agar shu davlat yoki millat tomonidan nazorat qilinadigan hudud tasarrufiy hududdan chetda joylashgan bo'lsa va aloqa yo'llari yoki tizimlari o'zga davlatlar tomonidan nazorat qilib turilsa bunday hudud geosiyosiy tayanch nuqtasi deyiladi. Bu hudud nazorati tasarrufiy hududga nisbatan biroz sust, ya'ni erkin bo'ladi. Geosiyosiy tayanch nuqtasi davlatlar tomonidan asosan raqibiga qarshi ta'sir qilish maqsadida foydalaniladi. Asosiy qarama-qarshi turish esa tasarrufiy hududlar tutashgan yerda kuzatiladi.

XX asr so'ngida geosiyosatda yangi hududiy tushuncha - metapole (gr. meta - shakl o'zgartirish) tushunchasi paydo bo'ldi. Metapole, ya'ni markazlashgan hudud bo'lib, bir necha davlatlarning birlashishi, yoki siyosiy, iqtisodiy, harbiy jihatdan kelishilgan holda yagona hududni nazorat qilishlari tushuniladi.

Hududiy nazorat shakllari. Hududlar ustidan nazorat o'rnatish mazkur hududni qo'lda saqlab qolish maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmui nazarda tutiladi. Bunda quyidagi nazorat shakllari mavjud:

Siyosiy nazorat - bunda asosan siyosiy infrastrukturaga, ya'ni partiya, davlat, shartnomaviy yoki hukumat vakillari boshqaruviga asoslanadi. Hududlarni nazorat etishda asosiy o'rinni egallaydi.

Harbiy nazorat - ma'lum bir hududni qurolli kuchlar yordamida nazorat qilib turish.

Iqtisodiy nazorat - bu nazorat turining umumiy emasligi va shu hududning barcha qismiga bir xilda yoyilmasligi mumkin. Shunga qaramay, ushbu nazorat turi davlatlararo munosabatlarining tobora rivojlanishi va iqtisodiyotning davlat tizimlariga ta'siri kuchayishi ta'sirida keng quloch yoymoqda. Hozirda bu nazorat turining davlat siyosatidan ustun qo'yilishi natijasida yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Biroq, mazkur jarayon murakkab bo'lib, davlatlararo munosabatlarda shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Madaniy nazorat - bu nazorat turi ham o'ziga xos bo'lib, keng qamrovga ega. Unda biron-bir madaniyat o'ziga tutash madaniyatlarni (turish-turmushidan tortib to dunyoqarashgacha bo'lgan an'analarni) nazorat qilib turishi mumkin. bu esa o'z navbatida to'g'ridan-to'g'ri shu hududni nazorat qilishga va shu hududga o'z ta'sirini o'tkazishga bo'lgan urinishlarni keltirib chiqaradi. Madaniy nazorat har bir davrda eng asosiy va muhim vosita bo'lib, bugungi kunda ham o'z mohiyatini yo'qotmagan.

G'oyaviy nazorat - madaniy nazoratning bir bo'lagi bo'lib, davlat hududining kengaytirilishiga olib keladi. G'oyalar kurashi sirtidan jo'n ko'rinsada, aslida o'z hududini kengaytirishi, yoki bo'lmasa shu hududni saqlab qolish asosiy maqsad qilib olinadi. G'oyalar qanchalik kuchli va tajavuzkor bo'lsa, shunchalik uning unumliligi ortadi.

Bu borada «Mafkura» va «Hudud» o'rtasida o'zaro qanday aloqa bor, mafkura nima, uning asosiy vazifasi nimalardan iborat, degan savol tug'iladi.

«Hudud», eng avvalo, bozordir, bozor esa o'z o'rnida iqtisodiyot bilan bog'liq. Iqtisodiyot esa manfaatlar bilan ifodalanadi. Manfaatlar siyosatni harakatga keltiruvchi kuch, mafkura (g'oya) esa uning libosidir, ya'ni odamlar, jamiyat ongini «to'g'ri yo'lga» solib turadi.

Milliy mafkura - har bir jamiyatning manfaatlarini siyosiy darajada ifodalovchi, jamiyatni shu manfaatlar uchun kurashga yo'naltiruvchi, uyushtiruvchi g'oyalar tizimidir. Jamiyat manfaatlari turli darajalarda va shakllarda namoyon bo'ladi. Jamiyatning asosiy siyosiy manfaatlari jumlasiga shu jamiyatni tashkil etuvchi davlatning mustaqilligi, uning iqtisodiy jihatdan ta'minlanganligi va istiqbolga egaligi, davlatning harbiy, iqtisodiy, g'oyaviy, ekologik, informasion jihatdan himoyalanganligi, jamiyatning ichida esa fuqaroaro, millatlararo barqarorlikning ta'minlanganligi va boshqalar kiradi. Bularning barchasi shu

jamiyatni tashkil etgan insonlarga, ularning ongi, aql-idroki va ijodkorligiga bog‘liq¹.

AQShlik siyosatshunos S.Rozenbergning ta’biricha, «Mafkura» tushunchasi ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida, ya’ni mahsulot va borliq, va ijodiy faoliyati orqali sub’ektni taniyotgan shaxsning siyosiy tafakkuri faoliyatining ortib borishi jarayoni bilan belgilanadi.

Uning fikricha, tafakkur faoliyatining ortib borishi shaxsning siyosiy voqe’likni qabul qilish tizimi tushunchasiga bevosita ta’sir etadi. Bu esa o‘z navbatida shaxsning u yoki bu siyosiy voqe’likda o‘zini qanday tutishini belgilab beradi ... Siyosiy tafakkur shaxsni uning atrofidagi siyosiy muhit bilan bog‘lovchi muhim «ko‘prik» vazifasini bajaradi².

O‘zga amerikalik professor M.X.Xant, AQShning tashqi siyosiy faoliyatini o‘rgangan holda mafkura va tashqi siyosatning o‘zaro ta’siri va o‘zaro hamkorligini qayd etib o‘tgan holda, AQSh olimlari milliy xavfsizlik manfaatlarining keng ma’nodagi yo‘nalishlarini ishlab chiqqanliklari va bu borada qator ishlar olib borganliklarini bayon etib o‘tadi³.

Demak, jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalar, amalga oshirilayotgan siyosatga ijtimoiy-siyosiy nuqtai-nazardan baho berish orqali munosabat bildirish, unga yondoshish, manfaatlarining falsafiy-ma’naviy ifodasi va amaliy joriy etilish jarayoni mafkura bilan belgilanadi. Mafkura doimo markazga intiluvchi kuchlarni o‘zida ifoda etib, ularni ta’minlab berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Misol tariqasida, «Markazga intiluvchi» kuchlar sifatida «sobiq ittifoq yaxshi edi» - Moskvaga intiluvchi kuchlar, «xalifalik davlati» - manfaatdor kuchlarning o‘z taraflariga va ta’sir doiralariga tortishlarini ko‘rishimiz mumkin.

Kommunikasion nazorat - biror-bir hudud ustidan nazorat turlarining majmuiga aytiladi.

¹ Тўраев Б. Миллий мафкура ва Миллий ғоянинг концептуал асослари. // Миллий тикланиш, 1999 йил 24 август.

² Rosenberg S.W. Reason, ideology and politics. –Oxford: Polity press, 1988. –P.79-81.

³ Hunt M.H. Ideology and US foreign policy. –N.Y.: Yale university press, 1987. –P.14.

Demografik nazorat - davlat hududi aholisining kam yoki ko'p sonlik ekanligi har bir davlat siyosatida katta ahamiyatga ega. Masalaning yana bir mohiyati shundaki, demografik nazorat madaniy nazorat bilan bog'liq va agar bir millatga mansub bo'lgan xalqlar madaniy jihatdan uzoq bo'lsalar demografik nazorat o'z-o'zidan kuchini yo'qotadi.

Ommaviy axborot vositalari yordamidagi nazorat - bu yangi nazorat turlaridan biri bo'lib, ommaviy axborot vositalarining taraqqiyoti, tele- va radio aloqalarining rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan. Ayrimlar bu nazorat turini takomillashgan kommunikasion nazorat turi deb baholaydilar. Kommunikasion nazorat tushunchasi keng ma'noni bildiradi. Ommaviy axborot vositalari nazorati esa ma'lum bir o'ziga xosligi bilan ajralib turadi va bu nazorat turi siyosat yurgazishning asosiy manbaiga aylanib bormoqda.

Hududiy nazorat turlari. Qit'aviy nazorat turi - quruqlik ustidan nazorat qilish. Bu nazorat turi an'anaviy bo'lib, hozirgi kunda ham o'z mavqeini yo'qotmagan. Yerning quruqlik qismi ustidan faol va uzviy nazorat qilish boshqa nazorat turlari bilan chambarchas bog'liq.

Okean-dengiz nazorat turi - bu nazorat turining shakllanishi natijasida dunyo xalqlarini yanada yaqinlashtirdi. Hozirgi davrda ham bu nazorat turi harbiy, iqtisodiy yoki madaniy o'lchamlarda kuchayib bormoqda. Hozirda okean va dengiz tubidagi xom ashyoni qazib olish va qayta ishlash masalasi okean - dengiz nazorat turiga katta mas'uliyat yuklaydi. Harbiy nuqtai-nazardan suv osti yadro kemalari okean - dengiz nazorat turining kuchayishiga olib keladi.

Havo nazorati turi - XX asrda geosiyosiyosat nazariyasiga katta o'zgarishlar kiritdi. Havo nazorati turlaridan biri raketalar bo'lib, xoh yadro raketasi, xoh yadrosiz raketalar bo'lsin, yerning turli nuqtasini nazorat qilinishini kuchaytirib berdi. Harbiy nuqtai-nazardan esa aviatsiya jang natijasi yoki ma'lum bir harbiy dasturlarni amalga oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi ko'zda tutilmoqda.

Koinot jihatdan nazorat turiga - bugungi kunda asosan harbiy nuqtai-nazardan yondoshilib, yer ustidan to'liq nazorat qilishga qaratilgandir. Misol tariqasida

AQShning sobiq prezidenti R.Reygan tarafidan ilgari surilgan SOI dasturini, yoki, AQShning amaldagi prezidenti J.Bush tarafidan Raketalarga qarshi Milliy mudofaa tizimining amalga oshirishga kirishilganini ko‘rishimiz mumkin. Biroq bu kabi dasturlar bir tarafdin iqtisodiy, boshqa tomondan esa texnologiyalar taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lib, amalga oshirish murakkab masalalar sirasidandir.

Xulosa qilib aytganda, «hudud», eng avvalo, bozordir, bozor esa o‘z o‘rnida iqtisodiyot bilan bog‘liq. Iqtisodiyot esa manfaatlar bilan ifodalanadi. Manfaatlar siyosatni harakatga keltiruvchi kuch, mafkura (g‘oya) esa uning libosidir, ya’ni odamlar, jamiyat ongini «to‘g‘ri yo‘lga» solib turadi. Ma’lum bir makon ustidan nazorat o‘rnatishda, avvalo, shu makon xususiyatlaridan kelib chiquvchi turlariga e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Chunki har bir makon o‘ziga xos bo‘lib, iqtisodiy, ijtimoiy va harbiy salohiyatlarining o‘sishi va taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq.

2-BOB. XALQARO MUNOSABATLARDA ANTARKTIKA MUAMMOSINI HAL ETISHNING HUQUQIY VA TASHKILIY-AMALIY JIHATLARI

2.1. Antarktika maqomi o‘rnatilishining halqaro huquqiy me‘yorlari

Bugungi kunda jahon siyosatida ko‘plab bahslarga sabab bo‘layotgan hudulardan biri Antarktika qit‘asidir. Ma‘lumki, davlatlarning iqtisodiy rivojlanishi, harbiy jihatdan qudratining ortishi xom ashyo manbalariga bo‘lgan talabni keskin oshirmoqda. Natijada sayyoramizning turli mintaqalarini o‘z ta’sir doirasiga olishga intilmoqdalar. Shu boisda bugungi xalqaro munosabatlarda Antarktika masalasida bir qator o‘zaro qarashlar, qit‘aga nisbatan hududiy da’volar o‘sib bormoqda. Antarktika masalasi borasidagi jarayorlarni aniqlash, ularni tahlil etish qit‘a tarixini o‘rganishni talab etadi.

Antarktika Yer sharining janubiy qutbi sanaladi. Mazkur atama grek tilidan olingan bo‘lib, “ἀνταρκτικός” — ya’ni Arktikaning qarama qarshi nuqtasi degan ma’noni anglatadi. Biroq, rus manbalarida janubiy qutbga nisbatan ikki hil yondoshuv shakllangan. “Antarktika” atamasi Janubiy qutbning 60 daraja kenglik doirasida muzliklar va qit‘aning quruqlik qismini qamrab olgan bo‘lib, uning hududi atrofida...

“Antarktida” - janubiy qutbning bevosita quruqlik qismiga tegishli bo‘lib, u Antarktikaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bugungi kunda Janubiy Okean bilan qurshab olingan, umumiy maydoni 14,4 mln km². Shundan 1,6 mln km²ni muzliklar shelfi tashkil etadi. Biroq bunday farqlanish g‘arb manbalarida kuzatilmaydi¹.

Antarktikaning kashf etilishi XIX asrgaborib taqaladi:

Antartida rasmiy ravishda 1820 yil 16 (28) yanvarda rus ekspedisiyasi tomonidan ochilgan. Uning rahbarlari [Faddeya Bellinsgauzena](#) i [Mixaila](#)

¹ Бардин В. [Клыки дракона](#) // [Вокруг света](#). –1986. –№ 3 (2545). –С.12.

[Lazareva](#) bo'lishgan. 1955 yildan boshlab Antarktikada tadqiqotlar olib borish ishlari bo'yicha xalqaro kelishuvlar amalga oshirildi¹.

Ilk rus stansiyalari 1956 yil 16 fevralda ochilgan bo'lib, "Tinchlik" deb nomlanadi. Bugungi kunda Antarktikada 37ta stansiya faoliyat yuritayotgan bo'lib, quyidagi davlatlarga tegishli ekanligini ko'rsatish mumkin:

[Argentina](#)-6ta; [Rossiya](#)-5ta; [AQSH](#), [Avstraliya](#) va [Chili](#) - 3 tadan; [Velikobritaniya](#) va [Kitay](#) - 2 tadan, [Norvegiya](#), [Fransiya](#), [Novaya Zelandiya](#), [Yaponiya](#), [Braziliya](#), [Urugvay](#), [Janubiy Koreya](#), [JAR](#), [Germaniya](#), [Hindiston](#), [Polsha](#), [Ukraina](#) - 1 tadan shuningdek, Fransiya va Italiyaning 1 qo'shma stansiyalari mavjud².

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Antarktika qit'asi maqomini aniqlash, uni "sovuq urush"ning³ qurollanish ob'ektiga aylantirmaslik, ekologik muvozanatni saqlab qolish maqsadida qit'aning xalqaro huquqiy maqomini belgilash dolzarb masala aylandi. 1959 yil 1 dekabrda Antarktika to'g'risidagi shartnomaga binoan materik hech bir davlatga tegishli bo'lmay, faqatgina tinchlik maqsadlari yo'lida tadqiq etilishi belgilab berilgan edi. Shuningdek, mazkur shartnoma ijrosini nazoratni amalga oshirish maqsadida Antarktika shartnomasi bo'yicha Kotibiyat tashkil etilgan. 1991 yilgi Madrid protokoli Antarktikada mahsulot ishlab chiqarish, tabiiy boyliklarini qazib olishni taqiqladi⁴.

Umuman olganda bugungi kunda Antarktikaning huquqiy jihatdan maqomini belgilab berishda quyidagi xalqaro xujjatlarni mavjud:

– 1959 yil 1 dekabrda Antarktika to'g'risidagi Shartnoma imzolandi. 1961 23 iyunda mazkur shartnoma kuchga kirdi va Kanberrada Birinchi Konsultativ uchrashuv tashkil etildi;

– 1972 yilda Antarktik tyulenlarini himoya qilish to'g'risidagi Konvensiya qabul qilindi. 1978 yil 11 martda mazkur konvensiya kuchga kirdi.

¹ Кравчук П. А. Географический калейдоскоп. –Киев: Радянська школа, 1988. –С.9-10.

² Дубровин Л. И. [Человек на ледяном континенте](#). –Ленинград: Гидрометеиздат, 1976. –С.29-36.

³ Иванов Л. и др. [Карта о-вов Ливингстон и Гринвич](#) // <http://www.antarktis.ru/index.php?>

⁴ [Текст "Мадридского протокола 1991 года". Экологическая этика в Антарктике](#) // http://www.coolantarctica.com/Antarctica%20fact%20file/science/madrid_protocol.htm

– 1977 yildan boshlab Antarktika Shartnomasi Kunsultativ uchrashuvlari qit'a dengiz jonli resurslarini himoya qilish to'g'risida qator xalqaro muzokaralar seriyasini boshladi.

– 1980 yilda Antarktika jonli dengiz resurslarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya qabul qilindi (CCAMLR) va mazkur shartnoma 1982 yil 7 aprelda kuchga kirdi.

– 1991 yil Antarktika Shartnomasiga qo'shimcha Atrof-muhimtni himoya qilish to'g'risidagi protokol qabul qilindi. 2002 yil 24 mayda Protokol Ilova V shaklida to'liq kuchga kirdi.

Shuningdek, bugungi kunda Antarktika bo'yicha quyidagi tashkilotlar faoliyat yuritmoqda:

- Antarktika shartnomasi kotibiyati;
- Antaratikada tadqiqotlar olib borish bo'yicha ilmiy qo'mita;
- 29 davlatning milliy Antarktika bo'yicha dasturlari qo'mitasi;
- Antarktika bo'yicha turoperatorlar halqaro assotsiyaatsiyasi.

1959 yil 1 dekabrda imzolangan Atraktika to'g'risidagi shartnomaga binoan Antraktika birorta davlatga tegishli emas. Faqatgina ilmiy faoliyat yuritishga ruxsat etilgan. Shuningdek, 60 gradus janubiy kenglikda harbiy kemalar olib kirish v joylashtirirish taqiqlangan¹.

Antarktika to'g'risidagi Shartnoma 1959 yil 1dekabrda Vashingtonda 12 davlat tomonidan imzolangan. Mazkur Shartnoma Antarktika halqaro huquqiy rejimini belgilashda asosiy shartnoma hisoblanadi. U 1961 yil 23 iyunda kuchga kirgan. Hozirda mazkur shartnomaga 48ta davlat a'zo. Mazkur Shartnoma depozitoriysi AQSh hisoblanadi. Asosiy imzolagan 12 davlatlar:Argentina; Avstraliya, Belgiya, Chili, Fransiya, Yaponiya, Yangi Zelandiya, Norvegiya, Rossiya, Janubiy Afrika, Birlashgan qirollik (Angliya) va AQSH.

¹ [Трёшников А.Ф.](#) История открытия и исследования Антарктиды. –М.: Географгиз, 1963. –С.32.

Shartnoma majburiyatlariga ko'ra u Antarktikada faqatgina tinchlik maqsadlarida ilmiy tadqiqotlar olib borishga ruxsat bergan va materikda harbiy faoliyatni amalga oshirish, yadroviy qurollanish zonasiga kiritish, radioktiv chiqindilarni tashlaydigan hududga aylantirish taqiqlangan. Shartnomaning 14 moddasi quyidagilarni o'zida mujassam etgan:

1-modda. Antarktika tinchlik maqsadlari yo'lida foydalaniladi. Hech qanday harbiy faoliyat yo'l qo'yilmaydi.

2-modda. Antarktikada ilmiy tadqiqotlar olib borish erkin hisoblanadi.

3-modda. Ilmiy tadqiqotlar rejalari, kuzatishlar va natijalari sir saqlanmaydi va erkin almashishlar uchun ochiqdir;

4-modda. Barcha milliy da'volar imzolanish kunidan ajratilgan hisoblanadi. Kelgusida hech qanday davlatlar faoliyati ntarktika Shartnomasi mavjud vaqtda hududiy severenitet va status kuo huquqlariga ta'sir etmaydi.

5-modda. Yadroviy sinovlar va radioktiv chiqndilarning meterikka keltirish taqiqlanadi.

6-modda. Shartnomaning amal qiladigan chegaralari 60 gradus Janubiy kenglik hisoblanadi va boshqalar.

Antakrtika Shartnomasi bir qator boshqa shartnomalar uchun asos hisoblanib, ular bilan birgalikda Antarktika sharnomasi tizimini tashkil etadi. Ular qatoriga:

- 1991 yil Madrid shahrida imzolangan Antakrtika Shatnomasiga protokol sifatida Atrof-muhitni himoya qilish to'g'risidagi Protokol;
- 1972 yil Antarktik tyulenlarini himoya qilish to'g'risidagi Konvensiya (CCAS, London,1972).
- 1980 yilda Antarktika jonli dengiz resurslarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya qabul qilindi (CCAMLR) va mazkur shartnoma 1982 yil 7 aprelda kuchga kirdi (Kanberra).
- Antaktika Shartnomasi Kotibiyati 2004 yilda o'rnatilgan va Argentina poytaxti Buenos-Aerosda joylashgan.

2010 yil 29 yanvarda Portugaliya nokonsultativ a'zo sifatida shartnomaga qo'shildi. 2010 yil 7-9 aprel kunlari Antarktika Shartnomasi Ekspertlar Uchrashuvi Norvegiyada o'tkazilib, unda Antarktikadagi iqlim o'zgarishlari, tadqiqotlar va mavjud xaritalar muhokama etildi. Shuningdek 2010 yil 3-14 may kunlari **XXXIII** Antarktika Shartnomasi Konsultativ uchrashuvi Urugvay davlatining Punta del Este shahrida tashkil etildi. Unda quyidagi masalalar ko'rildi¹:

- Iqlim o'zgarishi va shu bo'larada Antarktikada o'tkazilayotgan tadqiqotlar;
- Janubiy dengizda 2012 yilga qadar dengiz himoya hududini joriy etish;
- biologik rivojlanish borasida ayrim davlatlar tomonidan ma'lumot berishning yo'qolib borayotganligi va uning ahamiyati borasidagi qarashlar;

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda Antarktika sayyoramizning muhim ahamiyatga ega materigi bo'lib, uning axlqaro huquqiy maqomi 1959 yilga shartnomaga asosan belgilab berilgan. Unga ko'ra materikka nisbatan har qanday hududiy da'volar inkor etilgan va davlatlarning faqatgina tinchlik maqsadlariga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib boirshiga ruxsat etilgan. Shuningdek, materikni harbiy maqsadlar yo'lida plasdarmga aylantirish yoki harbiy sinov poligon sifatida e'tirof etish ham Antarktika to'g'risidagi shartnomaga binoan qat'yan taqilganadi. Mazkur sa'y-harakatlar kelgiusida materikning tabiiy holatini saqlab qolish imkoniyati oshirishga xizmat qiladi va xalqaro huquqiy maqomini mustahkamlashga olib keladi deyish mumkin.

2.2. Antarktikaga nisbatan hududiy da'volar

Bugungi kunda davlat o'rtasida bir qator hududiy da'volar mavjud bo'lib, ular bevosita davlat o'rtasidagi munosabatlarga, global barqarorlikka nisbatan o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Mazkur hududiy da'volarni ham Antarktika materigida ham kuzati mumkin.

¹ Antarctic Treaty. Inventory of International Nonproliferation Organizations and Regimes / Center for Nonproliferation Studies. // <http://www.nps.com> - Last Updated: 2.28.2011

Antarktika hududi Buyuk Britaniya hududidan 50 barabar, Xitoy va Hindistonning birgalikdagi hududidan ham katta maydonni egallagan. Antarktika va materik atrofidagi dengizlar jahondagi 9/10 muzlik qismini qamrab olgan. XX asrning dastlabki yillaridan boshlab, materikka nisbatan 7ta davlat o'zining hududiy da'volarini ilgari sura boshladi. Bular: Argentina, Avstraliya, Chili, Fransiya, Yangi Zelandiya, Norvegiya va Birlashgan qirollik¹. Shu bilan birga mazkur jarayonga Rossiya va AQSh ishtirokni ham kuzatish mumkin.

Bugungi kunda Antarktika materigiga nisbatan davlatlarning quyidagi hududi da'volarini kuzatishimiz mumkin.

1. *Buyuk Britaniyaning* o'zi million km kv. hududni asosiy da'vo zonasi sifatida belgilab qo'ygan. Britaniyaning Antarktikaga birinchi hududiy da'vosi 1908 yilda boshlangan

2. *Fransiya* tomonidan 1924 yildan boshlab - Adeli hududiga nisbatan hududiy da'volarini ilgari sura boshlagan. Mazkur hudud 136°-142°oralig'idagi sharqiy uzunlikda joylashgan.

3. *Chili* davlati 1940 yildan boshlab materikdagi Megellandiya va Chili Antarktikasi deb ataluvchi 53°-90° gradus g'arbiy uzunlikda joylashgan hududlarga o'z da'vosini ilgari surmoqda.

4. *Argentinaning* materikdagi hududiy da'vosi Argentina Antarktikasiga qartilgan bo'lib, uning boqarilishi Olovli hudud departamenti tomonidan amalga oshirilmoqda. Mazkur hudud 25°-74° gradus g'arbiy uzunlikda joylashgan.

5. *Avstraliya* Antarktikadagi hududlarga nisbatan asosiy da'vogar davlat hisoblanadi. Mazkur hududlar mamlakat tashqi hududlar deb ataladi va 1933 yildan boshlab mazkur masala shakllangan. Avstraliya da'vosi ostidagi hudud 44°-136°gradus sharqiy uzunlik va 142°-160° gradus sharqiy uzunlikda joylashgan.

5. *Norvegiya* ham 1939 yildan 20° g'arbiy uzunlik-44° gradus sharqiy uzunlikda va janubda 84-86°gradus janubiy kenglikda joylashgan Qirolicha Mod yeri uchun o'z da'vosini bildirib boshlagan.

¹ Shaw M.N. International Law. –London, 2003. –P.456.

6. *Yangi Zelandiya* 1923 yilda Rossa hududi va 90°-150°gʻarbiy uzunlikda Tinch okeani sektoriga (Petra I orolidan tashqari) daʼvolik qilmoqda.

7. *Braziliya* 1986 yidan 28° i 53°gradus gʻarbiy uzunlikda joylashgan Antarktika sektoriga daʼvogʻarlik qilmoqda. zapadnoy dolgoti vklyuchayutsya v «zonu interesov» Brazili.

Shuningdek, Janubiy Georg va Janubiy Sendvich hamda Folkled orollari borasida Buyuk Britaniya va Argentina oʻrtasida hududiy nizolar mavjud boʻlsa, Olovli Yer arxipelagi uchun Argentina va Chili oʻrtasida baxslar mavjud¹.

Bugungi kunda Britaniya va Avstraliya Antarktika materigining yarmiga daʼvogʻarlik qilmoqda. Birgina Britaniyaning oʻzi million km kv. hududni asosiy daʼvo zonasi sifatida belgilab qoʻygan. Britaniyaning Antarktikaga birinchi hududiy daʼvosi 1908 yilda boshlangan. 1943 yildan buyon mamlakatda Britaniya Antarktika Hududi (BAT) tashkil etilgan. 1962 yilda Britaniya Antarktika safari (the British Antarctic Survey (BAS))ga asos solingan. Mazkur jamiyat va tashkilotlarning barchasi Britaniyaning Antarktikadagi manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan².

Fransiya esa Adeli hududi orqali oʻz daʼvosini amalga oshirayotgan boʻlsa, Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniya, Chili va Argentina deyarli yagona hududga va Janubiy shotland oroliga daʼvogʻarlik qilmoqda. Biroq, 1959 yilgi Antarktika toʻgʻrisidagi Shartnomaning IV moddasida Antarktikaga nisbatan hech qanday hududiy daʼvolar tan olinmagan. Yangi daʼvo va bayonotlar esa mazkur shartnomaga koʻra yuridik kuchga ega emasligi belgilab qoʻyilgan.

Biroq, ayniqsa keyingi davrlarda BMT va mintaqaviy tashkilotlarning (YeXHT, ADL, ABT, Afrika Ittifoqi, Yevropa Ittifoqi) xalqaro nizolarni tinch hal etish ishidagi sa'y-harakatlari har doim ham yuqori samara bermayotganligi avvalo, davlatlar oʻrtasidagi siyosiy ixtilof, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning ichki,

¹ Территориальные претензии в Антарктике. // <http://www.wikipedia.wiki.org> - 16.08.2010.

² Joyner C.C. Antarctica and the law of the sea. –London, 1992. –P.48.

ularning faoliyati jarayonida vujudga kelayotgan muammolar bilan izohlanadi¹. Fikrimcha, bu kabi muammolarning asosiylari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Xalqaro tashkilotlar tashkiliy-huquqiy strukturasidagi, ayniqsa, ularning organlarini shakllantirish tartibi, ular tomonidan qaror qabul qilinishi va ular o'rtasida vakolatlarining taqsimlanishidagi nuqsonlar;

2. Xalqaro tashkilotlarni moliyalashtirishning amaldagi tizimining mustahkam emasligi;

3. Birlashgan Millatlar Tashkilotining mintaqaviy tashkilotlar bilan va o'z navbatida mintaqaviy tashkilotlarning bir-biri bilan o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi tashkiliy-huquqiy asosning mavjud emasligi;

4. Tomonlar o'rtasidagi ziddiyatli qarama-qarshilikni bartaraf etish chog'ida tinch tartibga solish vositalarining maqbul huquqiy boshqaruvining mavjud emasligi;

5. Xalqaro tashkilotlar qarorlarini joriy qilishdagi qiyinchiliklar.

Xalqaro tashkilotlar tashkiliy-huquqiy strukturasidagi, ularning organlarini shakllantirish tartibi, ular tomonidan qaror qabul qilinishi va ular o'rtasida vakolatlarining taqsimlanishidagi nuqsonlar ayniqsa BMTga xosdir. BMT Ustavida xalqaro nizolarni hal etishning mexanizmi tinch va kuch ishlatish vositalarining muvozanati tizimi sifatida nazarda tutilgan.

Hozirgi zamon xalqaro munosabatlarida nizolarni tinch hal etish printsipi umume'tirof etilgan tamoyil sifatida shakllangan. Unga ko'ra xalqaro nizolar istisnosiz tarzda tinch vositalar bilan hal etilishi lozim.

1899 va 1907 yillardagi Gaaga tinchlik konferentsiyalarida Xalqaro to'qnashuvlarni tinch hal etish to'g'risidagi Konventsia ishlab chiqildi va qabul qilindi. Unda ezgu xizmatlar va vositachilikni qo'llash, xalqaro arbitraj va tergov komissiyalarini tashkil qilish va faoliyat ko'rsatishining qoidalari ma'lum ma'noda

¹ Зуйков Р.С. Вестфальская система межгосударственных отношений: критерии и трансформация // Мировая экономика и международные отношения. – 2010. – №3. – С. 14.

umumlashtirildi va unifikatsiya qilindi. Biroq, bu davrda xalqaro munosabatlarda qurolli kuch ishlatishga yoʻl qoʻyilishi ham tan olinar edi. Ana shunday sharoitda ezgu xizmatlar va vositachilik, shuningdek, nizolarni tinch hal etishning Konventsiyada nazarda tutilgan boshqa vositalaridan foydalanish ishtirokchilar uchun yuridik majburiy emas edi. Masalan, mazkur Konventsiyaning 2-moddasiga muvofiq muhim kelishmovchilik va toʻqnashuv mavjud boʻlganda shartlashayotgan davlatlar “qurol ishlatishdan oldin, sharoit imkon bergunicha ezgu xizmatlar yoki bir yoxud bir necha davlatlarning vositachiligidan foydalanish”ga kelishib oldilar. “Sharoit imkon bergunicha” degan izoh bunday vositalardan foydalanishni nizolashayotgan tomonlardan har biri oʻzicha hal qilishini anglatadi. Tabiiyki, bu nizoni hal qilishning majburiy bosqichi boʻla olmas edi.

Bugungi kunda Antarktikaga nisbatan davlatlar oʻrtasidagi daʼvolar kuchayib borayotgan bir qaroitda hudularni quyidagi turlarga boʻlish mumkin¹:

1. Davlat hududi - mayyan bir davlatning suvereniteti ostida boʻladi. Uning tarkibiga chegara doirasidagi quruqlik va yer osti boyliklari, ichki va hududiy suvlar, quruqlik va suv ustidagi atmosfera xavosi kiradi. Dengiz boʻyi davlatlari qirgʻoqdan 3dan 12 dengiz miliyasigacha davom etadigan hududiy suvlarga egalik qiladi.

2. Xalqaro tartibdagi hududlarga davlat chegaralaridan tashqarida boʻlgan va xalqaro huquqqa binoan dunyoning barcha davlatlari foydalaniladigan Yer sharidagi boʻsh makonlar kiradi. Bular kontinental shleflardan tashqaridagi ochiq dengiz, xavo boʻshligʻini qamrab oladi.

3. Aralash tartibdagi hududlarga kontinental shelf, iqtisodiy zona dengizga tutash zona kiradi. Bunday huquqlarning hajmi xalqaro huquq, jumladan, Kontinental shelf toʻgʻrisidagi 1958 yilgi Jeneva konvensiyasi hamda BMTning Dengiz huquqi boʻyicha 1982 yilgi Konvensiyalarida belgilangan. Quruqlik shelflari quyidagi uchta asosiy belgilarga koʻra ajratiladi.

¹ Одилқориев Х.Т., Очилов Б.Э. Ҳозирги замон халқаро ҳуқуқи. –Т., 2002. –Б.104.

1) davlat chegaralariga tutashishi;

2) suvning 200m gacha chuqurligi

3) suv resurslaridan foydalanishning texnik imkoniyatlari(maksimal uzoqlik qirg'oqdan 350 mil). Mamlakatlar "o'z shelflar"ining tabiiy boyliklarini razvedka qilish, resurslardan foydalanishda alohida huquqlarga ega, lekin ularga tegishli akvatoriyalarda suveren huquqqa ega emas.

Masalan, suv osti konlaridan (shelfda qazib olish) neft qazib olishning dunyodagi xissasi umumiy ko'rsatkichning 40%ga yaqindir. Shelf va okean tubi temir, mis, marganes, nikel, kobalt va boshqa elementlarga boy.

Lotin amerikasi mamlakatlari 60-yillarning oxirida Dunyo okeanida iqtisodiy mintaqalarni o'rnatish tashabbusi bilan chiqdilar. 80-yillarning o'rtalariga kelib dunyoning deyarli barcha davlatlari ularning bu tashabbuslariga qo'shildilar. Hozir iqtisodiy zonalar xissasiga dunyo okeani maydonining 40%, shu jumladan 96% baliq ovlanadigan rayonlar kiradi¹.

Iqtisodiy mintaqalar hududiy suvlardan tashqari qirg'oqdan 200 dengiz miliga yaqin kenglikda joylashgan rayonlar bo'lib, dengiz bo'yi mamlakatlari bu yerdan mineral resurslarni qidirish. Qazib olish ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, baliq ovlashni amalga oshradilar, boshqa mamlakatlar esa kema qatnovi erkinligidan foydalanadilar. Baliq ovlashda belgilangan me'yordan ortiq qismdan foydalanish huquqiga egalar.

1959 yildagi Shartnomaga asosan Antarktika alohida xalqaro huquqiy tartibga o'tkazilgan. Materik to'liq demilitarizatsiya qilingan va ilmiy ishlar uchun barcha mamlakatlarga ochiqdir². Antarktikaning biror bir qismi u yoki bu davlatning suvereniteti ostida emas, lekin shunga qaramay Anarktikaga nisbatan ayrim davlatlarning huquqiy da'volari saqlanib qolmoqda³.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Antaktika 1959 yilgi shartnomaga asosan, de yure tarzda hech bir davlatga tegishli bo'lmay, mazkur materik faqatgina tinchlik

¹ Иктисодий география. Ўқув қўлланма. –Т., 2005. –Б.31-33.

² Иктисодий география. Ўқув қўлланма. –Т., 2005. –Б.31-33.

³ Одилқориев Х.Т., Очилов Б.Э. Ҳозирги замон халқаро ҳуқуқи. –Т., 2002. –Б.105.

va ilmiy maqsadlar uchun jahonning barcha davlatlari uchun ochiq hisoblanadi. Biroq, fe fakto tarzda materikka nisbatn yaqin davlatlar va oʻzga yetakchi davlatlar hududiy daʼvolarini ilgari surishmoqda. Bu hududiy daʼvolar iqtisodiy rivojlanib borayotgan jahonda xom ashyoning muqobil variantini qidirib topish sharoitida keskinlashib borayotganini kuzatish mumkin. Agar mazkur masala kelgusida qayta koʻrib chiqilmasa, bu materik uchun davlatlar oʻrtasidagi munosabatlarda keskinlikning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

2.3. Davlatlar oʻrtasida Antarktika tabiiy resusrlaridan foydalanish muammosi

Koʻpchilikka maʼlumki, har bir siyosiy oʻyinga uzoq oʻn yil, balki undan ham koʻproq davr mobaynida tayyorgarlik koʻrib boriladi. Xususan, bu oʻyinlar davlat manfaatlari bilan bogʻliq boʻlsa yoki raqiblarga nisbatan ustunlikka erishish borasida ketsa. Bugungi kunda sayyoramizning eng janubiy kengligida joylashgan Antarktidaning tabiiy resurslari uchun ketayotgan davlatlar oʻrtasidagi geosiyosiy oʻyinlar ham shular jumlasidandir.

Sayyoramizning oʻrnini toʻldirib boʻlmaydigan tabiiy zahiralari tugab bormoqda, demak bularni egallash uchun kurash ham avjiga chiqib bormoqda desak yanglishmagan boʻlamiz. Ayniqsa gap suv, oziq-ovqat, va boshqa shu kabi tabiiy resurslarning deyarli barchasiga ega boʻlgan va bugungi kunda sayyoramizning soʻnggi “omborxona”si deya atab kelinayotgan Antarktida haqida borganda¹.

Bugungi kunda biz “egasiz yer” uchun boʻladigan jiddiy ziddiyatlarning arafasida turibmiz. Geologlarning maʼlumotlariga koʻra Antarktidaning yer osti-temir rudalari, toshkoʻmir, mis rudasi, oltin, kumush, uran, nikel, rux, qoʻrgʻoshin, molibden, togʻ xrustali, slyuda (shaffof mineral), grafit kabi foydali qazilma boyliklari mavjud. Bundan tashqari, AQSh geologik xizmatining tasdiqlashicha, bu

¹ [Трёшников А. Ф.](#) История открытия и исследования Антарктиды. – М.: Географгиз, 1963. –С.32.

hudud 6,5 mlrd tonna neft, 4 trln kuba metrdan oshiq tabiiy gaz hamda 90 % chuchuk suv zahiralarga ega¹.

So'nggi vaqtlarda Antarktida yuzasidan mavzular majmui shiddat bilan o'rganilmoqda, va bu bejizga emas:

Birinchidan, jahon iqtisodining o'sib borayotgan talabini qondirish uchun ko'p miqdorda tabiiy resurslar talab qilinmoqda(xususan, yangi iqtisodiy qudratga ega bo'lib borayotgan Xitoy va Hindiston kabi davlatlar).

Ikkinchidan, texnologiyalarning taraqqiy topib borayotganligi resurslar uchun kurash olib borayotgan mamlakatlarni Antarktidada boyliklarni o'zlashtirish sanoati haqida fikr yurgizishga majbur qilmoqda.

Va uchinchidan, so'nggi yillarda ushbu muzlikdan iborat materikda sodir bo'layotgan global isishning tezlashib borayotganidir.

Yaqinda Buyuk Britaniyaning Antarktida bo'yicha Boshqarmasining (BAS) qayd qilishicha, so'nggi 30 yil ichida hududdagi havoning harorati butun jahon iqlim isishiga nisbatan uch barobar tezlashganini e'lon qilishdi. Bundan tashqari ushbu qit'a uchun kurash yana bir qancha omillarni yuzaga keltiradi²:

Birinchidan, muzlik-nihoyatda behisob chuchuk suv manbai bo'lib, yaqin kelajakda kutilayotgan suv resurslari tanqisligi, dunyo aholisining o'sishi va iqlimning isib ketishi tufayli ziddiyat uchun asosiy sabab hisoblanadi.

Ikkinchidan, deyarli "qo'l urilmagan" baliq va boshqa dengiz mahsulotlarining seroblighi ham bu borada tanqisligi sezilayotgan davlatlar uchun boyliklar makoni.

Uchinchidan, sayyoramizda ko'pchilik davlatlar uchun aholini o'sishi muammoga aylanib borayotgan davrda, ulkan hududning kimsasiz yotganligi ham o'ziga tortayotganligi sir emas.

To'rtinchidan, bugungi zamonaviy dunyomizda yer osti boyliklarining o'zni nihoyatda ulkan bo'lib, har davlat o'z iqtisodiyotini bularsiz tasavvur qila olmaydi.

¹ В мире начинается борьба за ресурсы Антарктиды // www.pravda.ru - 13.04.2008.

² В мире начинается борьба за ресурсы Антарктиды // <http://www.city-n.ru/view/91920.html> - 12.10.2010.

Shunday ekan, sayyoramizning oltinchi qit'asida hali teginilmagan qazilma boyliklarning mavjudligi bunga yaqqol dalil bo'la oladi.

Beshinchidan esa, ushbu qit'aning harbiy-strategik ahamiyati ham boshqa bir qancha davlatlarni o'ziga tortishi bejiz emas.

Bizga ma'lumki, shimoliy qutb uchun kurash allaqachon boshlangan bo'lib, Arktika bo'yi davlatlari tomonidan bo'lib olingan edi. Janubiy qutb uchun kurash esa, endi avjiga chiqmoqda. 1959 yil 1 dekabrda imzolangan va 1961 yil 23 iyunda kuchga kirgan Antarktika bo'yicha konvensiyaga muvofiq, Antarktida hech bir davlatga tegishli emas, bu yerda faqatgina ilmiy faoliyat va izlanish uchungina ruxsat berilgan bo'lib, harbiy obektlarni joylashtirish, jang va qurolli kemalarni 60 gradus janubiy kenglikda kiritish ta'qiqlangan.

Ushbu shartnomani ikki guruh davlatlari imzolashgan bo'lib, birinchi guruhga Antarktida yerlariga o'z da'volarini bildirayotgan davlatlar: Argentina, Chili, Buyuk Britaniya, Norvegiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Fransiya. Ikkinchi guruh esa hududiy da'volarga ega bo'lmagan davlatlar: AQSh, Rossiya, Yaponiya, Belgiya, JAR, 1961 yilda Braziliya, Polsha, Daniya, Niderlandiya, Ruminiya va Germaniya davlatlari qo'shilishdi. Hozirda bu shartnomaga 28 davlat a'zo bo'lib, 10 dan oshiq kuzatuvchi davlatlarga ega. Ammo, bugungi kunda kelishuvning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etmay qoldi, chunki, ushbu shartnomaga a'zo davlatlar o'zlarining qit'aga va ayrim davlatlarning chegarasi bo'ylab tutashib turgan hududlarga nisbatan da'volaridan voz kechishi lozim edi. Biroq, ayrim davlatlarning da'vosi katta hudud tufayli hali hamon mavjuddir. Misol uchun, Norvegiya hududiga nisbatan o'n marta katta maydonni egallovchi (Pyotr I oroli bilan qo'shib hisoblaganda) hududga nisbatan da'vosidan voz kechganicha yo'q¹.

Har bir davlat o'zlarining ilmiy stansiyalari niqobi ostida kelajakda qit'aning qazilma boyliklariga egalik qilish uchun faoliyat olib bormoqda. So'nggi paytlarda xom ashyoga bo'lgan talabning ortib borishi tufayli, hattoki Belorussiya, Ukraina, Chili, Urugvay kabi davlatlarning ham ushbu qit'aga qiziqishi kuchaymoqda.

¹ Антарктида-история и будущие войны за ресурсы // <http://www.pravda-tv.ru/2010/07/10/4159> - 10.07.2010.

Rossiya esa, faqatgina qazilma boyliklari uchungina qiziqish bildirayotgani yo‘q, balki, bizga ma’lumki Rossiya hududining ham 70 % abadiy muzloq yerlar tashkil etadi, shu sababli ham ilmiy izlanishlarni qiziqish bilan o‘rganish orqali, o‘z hududidagi muammolarni bartaraf etish yo‘lida faoliyat olib bormoqda¹.

2041 yilda atrof-muhitni himoya qilish yuzasidan imzolangan shartnoma muhlati tugaydi (1959 yilgi shartnomaning qo‘shimcha bandi sifatida imzolangan), shu sababli ham barcha davlatlar muhlat tugagunga qadar ilmiy izlanishlar bilan ushbu qit’ada faoliyat yurgizmoqda. Biroq , Avstraliya va AQSh kabi davlatlar esa, materikdagi neft zahiralari uchun kurashishni boshlab yuborganligi ham sir emas. Aynan AQSh 2020 yilga borib hududda neft qazib olishni rejalashtirayotganligi allaqachon maxfiylik darajasidan chiqib ulgurdi. Shu sababli ham qolgan da’vogar davlatlar iloji boricha dastlab materikda o‘zlarining ilmiy stansiyalarini o‘rnatishga oshiqmoqdalar.

Ammo bu borada, asosiy vaziyatlarni AQSh va Rossiya egallab kelmoqda. Rossiya ushbu qit’ada 50–yillarning o‘rtalarida o‘zining birinchi stansiyatsini ochgan davlatlardan hisoblanadi. Bugungi kunda esa, Antarktidada 28 mamlakatning 45 dan ortiq ilmiy stansiyalari mavjud bo‘lib, bu yerdagi aholi qish oylarida ming kishini, yoz oylarida esa 4 ming kishini tashkil etadi.

Bu stansiyalarning 6 tasi (Mirniy, Vostok, Novolazarevskaya, Progress, Bellinsgauzen i Drujnaya-4) Rossiya hisobiga to‘g‘ri keladi. Ammo Antarktidadagi eng katta bazaga AQSh ega bo‘lib, «MakMurdo» nomi ostida faoliyat yuritib kelmoqda. Bu kabi raqobatchilikni Xitoysiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. 1985 va 1989 yillardan o‘z ishini boshlagan «Chanchen» va «Chjunshan» stansiyalari hamda 2010 yilning yanvar oyida ishga tushgan «Kunlun» stansiyalari xitoyliklar tomonidan ochilgan uchinchi stansiya bo‘ldi².

¹ Joyner C.C. Antarctica and the law of the sea. –London, 1992. –P.48.

² Кравчук П. А. Рекорды природы. – Любешов: Эрудит, 1993. –С.201-06.

So‘nggi yillarda Janubiy qutbga yaqin hududda Janubiy Koreya, Belgiya va Estoniya davlatlari ham o‘zlarining ilmiy stansiyalarini o‘rnatishni e‘lon qilgan edilar.

Yana bir da‘vogarlardan Buyuk Britaniya bo‘lib, 2007 yil Antarktidaning bir qismini egallashga bo‘lgan o‘z da‘vosini e‘lon qilgan edi: Birlashgan Qirollik janubiy qit‘aning 1 mln kv.kmga teng maydonni o‘z yurisdiksiyasiga kiritishni rejalashtirgan edi(Antarktidaning umumiy maydoni 14 mln kv.km. ni tashkil etadi)¹. O‘z navbatida Avstraliya ham Antarktidadan o‘z ulushiga ega bo‘lishni xohlaydi hamda qit‘ada joylashgan “fransuz Adel Yeri” deb atalgan hududga bo‘lgan da‘vosini bildirmoqda. Bundan tashqari Yangi Zelandiya ham o‘zining hududiy da‘vosini e‘lon qilgan bo‘lib, Buyuk Britaniya, Chili va Argentina davlatlari esa Janubiy Amerika kvadratiga kiruvchi bir qancha hududlar, jumladan, Orkneyskiy, Janubiy Shetlan, Sandvichev, Georg, Biskoi, Belgrano orollarini o‘z ichiga olgan xuddi o‘sha hududlar yuzasidan umumiy da‘volarga egadir. Yaponiyaning ham bugungi kundagi ushbu hududlarga nisbatan o‘z da‘volari mavjud bo‘lib, u qalin muzliklar bilan qoplangan ushbu qit‘aning eng chuqur kengliklarida yastanib yotgan gaz konlariga ega bo‘lishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan holda, o‘zida bu gaz zahiralarini qazib olish uchun yuqori texnologiyalarga ega ekanligini asos qilib, hududiy da‘volarini e‘lon qilib kelmoqda. Argentinada joylashgan Lotin Amerikasi Strategik Tadqiqotlar Markazi Vitse Prezidenti, professor Alberto Buelaning fikriga ko‘ra, boshqa davlatlarga nisbatan Argentina ushbu hududlarga haqliroqdir, chunki o‘zining geografik holatidan kelib chiqqan holda kvadratlar nazariyasiga muvofiq, qit‘a G‘arbiy va Sharqiy qismlardan iborat bo‘lib, Sharqiy Antarktida Avstraliya va Afrika kvadratlaridan, G‘arbiy qismi esa Janubiy Amerika va Tinch okeani kvadratlaridan tashkil topgan².

¹ Shaw M.N. International Law. –London, 2003. –P.456.

² В мире начинается борьба за ресурсы Антарктиды // <http://www.pravda.ru/world/restofworld/10-04-2008/262615-antarctica-0/> - 10.04.2008.

Rossiya kelgusida o'zining Janubiy qutbdagi faoliyatini kengaytirish siyosatini yuritmoqda. Mamlakatning tabiiy resurslar vazirligi Antaktikadagi tadqiqotlar uchun 2 milliard AQSh dollari ajratishni taklif qildi. U 2011-2020 yillardagi amalga oshiriladigan loyihalar uchun mo'ljallangan. Bu orqali Rossiya Antaktikadagi resusrlarga nisbatan qiziqishini namoyon etdi. Bugungi kunda Rossiyaning mintaqada 5 ta ilmiy stansiyalari mavjud: Mirniy, Vostok, Progress, Novolazervskaya va Bellingsgaunzen.

Ekspertlar mazkur holatni Rossiyaning de fakto tarzda Antarktikaning bo'lib olinishi deya baholaganlar¹.

O'tgan asrning 80-yillarida Buyuk Britaniya, Yangi Zellandiya, Chili va Argentina qit'aga yaqin bo'lgan Antarktida orollari ustidan o'z suverinitetlarini e'lon qilgandi.

Bizga ma'lumki, qit'a uchun kurash faqatgina bugun emas, balki ancha oldingi tarixga borib taqaladi, 1819 yilda ushbu kurash Lazarev va Bellingsgauzenlar o'rtasida boshlangan edi, hamda keyingisi 1982 yilda Angliya va Argentina o'rtasida Folklend va Janubiy Georgiya orollari uchun bo'lib o'tgandi. Yaqin kelajakda ham Antarktida qit'asi urushning yashirin manbasi sifatida baholanib kelinmoqda

Xulosa qilib aytish mumkinki, Bugungi kunda sayyoramizning barcha mintaqalari va hududlari deyarli tabiiy resusrlarga bo'lgan talab va raqobat tufayli bo'lib olingan. Biroq, Antarktika mazkur holatda to'liq bo'lib olingani yo'q, garchi turli davlatlar tomonidan aniq hududiy da'volar mavjud bo'lishiga qaramay. Biroq, jahonda iqtisodiy taraqqiyotning jadal davom etishi, yangi iqtisodiy rivojlangan davlatlarning vujudga kelishi, jahon aholisining ortib borishi tabiiy resusrlarga bo'lgan talabning keskin ortishiga olib kelmoqda. Mazku jarayondan Antarktika materigi ajratib qo'yishning imkoniyati cheklangan va uning tabiiy resusrlaridan foydalanish borasida davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda keskinlik jarayoning

¹ Topalov A., Kovalevsky A. \$2 billion of Russian money will melt in Antarctica. The government is allocating money for the exploration of Antarctica // <http://www.lenta.ru> - 22.10.2010.

kuchayib borishini yaqin kelajakda kuzatish mumkin. Bu esa mintaqadagi ekologik vaziyat salbiy ta'sir etishi va yana bir global muammolar tizimini vujudga keltirish ehtimolining mavjudligini ko'rsatadi.

XULOSA

Mazkur bitiruv malakaviy ishda bevosita xalqaro munosabatlarda Antarktika muammosi, mavzuning nazariy jihatlarini, materikning xalqaro-huquqiy maqomi, bir qator davlatlarning Antarktikadagi hududiy da'volari, manfaatlari tahlil etilishi natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Kuchlar muvozanati xalqaro munosabatlarning eng qadimgi va eng davomiy konsepsiyalaridan biri hisoblanadi.

Shu bois jahon siyosiy tizimida kuch muvozanati rivojlanishining quyidagi tarixiy shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Nodoimiy kuchlar tengligi mavjudligi.

2. Kuchlar muvozanatini saqlash bo'yicha davlatlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlar tizimining shakllanishi.

3. Manfaatlar muvozanati tizimi yuzaga kelishi.

Qudratli davlatlar dunyosida bu ishonchli strategiya hisoblanadi. Shu jihatdan "kuchlar va manfaatlar muvozanati" geosiyosiy munosabatlarning ajralmas qismi bo'lib, har bir davrda jahon tartiboti holatini belgilab beruvchi asos hisoblanadi. Ko'plab ilmiy tadqiqotlar "kuchlar muvozanati" konsepsiyasi mohiyatini tahlil etishga qaratilgan, biroq hozirgacha yagona ta'rif ega emasligini kuzatish mumkin.

2. "Kuchlar muvozanati" nazariyasining asosiy jihatlarini sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Birinchidan, ushbu konsepsiya davlatlarning bosh maqsadi o'z xavfsizliklarini ta'minlash ekanligi ko'rsatadi.

Ikkinchidan, davlatlar o'zlarini saqlash qolish maqsadida tenglikka intiladilar. Davlatlar muayyan bir davlatning ustunligiga yo'l qo'magan holda boshqa davlatlari bilan to'g'ri ta'limlanmaguncha ittifoq tuzishadilar.

3. Yetakchi kuchlarning Markaziy Osiyodagi geosiyosatiga qarshi tura oladigan tuzilmalarning kuchayishi, mintaqadagi davlatlarning izchil va qat'iy tashqi siyosati, Yevroosiyoga yo'nalgan aniq pozitsiyasiga ko'proq bog'liq ekani

namoyon bo‘lmoqda. Aks holda bu hududda geosiyosiy vaziyat tubdan o‘zgarishi va yangi strategik tartibot vujudga kelishi mumkin. Bunday holatda milliy birligini saqlab qolgan, o‘z milliy manfaatlariga tayangan holda, aniq va izchil siyosat yuritgan davlatgina uzluksiz rivojlanadi. Har qanday holatda ham Yevroosiyoedagi strategik muvozanatning tashqi kuchlar nazoratida qolishi mahalliy xalqlar uchun jiddiy sinov bo‘ladi. Bunday murakkab holatni oldini olish uchun mintaqadagi vaziyatning barqarorlashuviga xizmat qiladigan ShHT singari tuzilmalar faoliyatining takomillashtirish masalasiga jiddiy e‘tibor qaratish zarur.

4. Hudud - geosiyosiy kategoriyalardan biri hudud bo‘lib, mazkur kategoriya mohiyatini anglash, avvalo, “geosiyosat” mohiyatini, uning kelib chiqishi va nazariy yondoshlarni anglash zarur. Har bir davlat ma’lum hudud ustidan ma’lum mezonlarga tayangan holda o‘z nazoratini o‘rnatadi. Mazkur jarayon hukumatning muayyan ijtimoiy qatlamlga tayangan holda faoliyat olib borishni talab etadi. Zero, jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayoti ishtirokchilarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy voqe’likka munosabatlarini tadqiq qilish bugungi kunda muhim masalalar sirasidan o‘rin olmoqda. Zero, har bir shaxsning, individning ijtimoiy-siyosiy masalalarni psixologik jihatdan qabul etishi masalasi yuritilayotgan siyosat masalasi bilan bevosita bog‘liq.

5. Davlatning asosiy vazifalaridan biri ma’lum bir hudud ustidan o‘z nazoratini (qonun, kuch yoki jinoiy yo‘l orqali) o‘rnatish bo‘lib, asosan milliy-madaniy, diniy va boshqa asoslarga tayanadi. Shuningdek, davlat ma’lum bir hududdagi ma’lum bir qatlam yoki qatlamlar (diniy, milliy, etnik, madaniy jihatdan) manfaatlarini xalqaro maydonda ifoda etib, ularni himoya qiladi. Geosiyosat tadqiqotining asosini hududlar tashkil etar ekan uning turlari, hududlar ustidan qay yo‘sinda nazorat o‘rnatish masalasi oldinga chiqadi. Zero, har bir davlat siyosatining ustivor vazifalar sirasiga hududlar turlaridan kelib chiqqan holda ular ustidan nazorat o‘rnatish kiradi.

6. Antarktika Yer sharining janubiy qutbi sanaladi. Mazkur atama grek tilidan olingan bo‘lib, “ἀνταρκτικός” — ya’ni Arktikaning qarama qarshi nuqtasi

degan ma'noni anglatadi. Biroq, rus manbalarida janubiy qutbga nisbatan ikki hil yondoshuv shakllangan. "Antarktika" atamasi Janubiy qutbning 60 daraja kenglik doirasida muzliklar va qit'aning quruqlik qismini qamrab olgan bo'lib, uning hududi atrofida. "Antarktida" - janubiy qutbning bevosita quruqlik qismiga tegishli bo'lib, u Antarktikaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bugungi kunda Janubiy Okean bilan qurshab olingan, umumiy maydoni 14,4 mln km². Shundan 1,6 mln km²ni muzliklar shelfi tashkil etadi. Biroq bunday farqlanish g'arb manbalarida kuzatilmaydi.

Antartida rasmiy ravishda 1820 yil 16 (28) yanvarda rus ekspeditsiyasi tomonidan ochilgan. Uning rahbarlari [Faddeya Bellinsgauzena](#) va [Mixaila Lazareva](#) bo'lishgan.

7. Umuman olganda bugungi kunda Antarktikaning huquqiy jihatdan maqomini belgilab berishda quyidagi xalqaro xujjatlarni mavjud:

- 1959 yil 1 dekabrda Antarktika to'g'risidagi Shartnoma imzolandi. 1961 23 iyunda mazkur shartnoma kuchga kirdi va Kanberrada Birinchi Konsultativ uchrashuv tashkil etildi;

- 1972 yilda Antarktik tyulenlarini himoya qilish to'g'risidagi Konvensiya qabul qilindi. 1978 yil 11 martda mazkur konvensiya kuchga kirdi.

- 1977 yildan boshlab Antarktika Shartnomasi Konsultativ uchrashuvlari qit'a dengiz jonli resurslarini himoya qilish to'g'risida qator xalqaro muzokaralar seriyasini boshladi.

- 1980 yilda Antarktika jonli dengiz resurslarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya qabul qilindi (CCAMLR) va mazkur shartnoma 1982 yil 7 aprelda kuchga kirdi.

- 1991 yil Antarktika Shartnomasiga qo'shimcha Atrof-muhimtni himoya qilish to'g'risidagi protokol qabul qilindi. 2002 yil 24 mayda Protokol Ilova V shaklida to'liq kuchga kirdi.

8. Antarktika to'g'risidagi Shartnoma 1959 yil 1dekabrda Vashingtonda 12 davlat tomonidan imzolangan. Mazkur Shartnoma Antarktika halqaro huquqiy

rejimini belgilashda asosiy shartnoma hisoblanadi. U 1961 yil 23 iyunda kuchga kirgan. Hozirda mazkur shartnomaga 48ta davlat a'zo. Mazkur Shartnoma depozitoriysi AQSh hisoblanadi. Asosiy imzolagan 12 davlatlar: Argentina; Avstraliya, Belgiya, Chili, Fransiya, Yaponiya, Yangi Zelandiya, Norvegiya, Rossiya, Janubiy Afrika, Birlashgan qirollik (Angliya) va AQSh.

Shartnoma majburiyatlariga ko'ra u Antarktikada faqatgina tinchlik maqsadlarida ilmiy tadqiqotlar olib borishga ruxsat bergan va materikda harbiy faoliyatni amalga oshirish, yadroviy qurollanish zonasiga kiritish, radiktiv chiqindilarni tashlaydigan hududga aylantirish taqiqlangan.

9. Bugungi kunda Anarktika materigiga nisbatan davlatlarning quyidagi hududi da'volarini kuzatishimiz mumkin.

1. *Buyuk Britaniyaning* o'zi million km kv. hududni asosiy da'vo zonasi sifatida belgilab qo'ygan. Britaniyaning Antarktikaga birinchi hududiy da'vosi 1908 yilda boshlangan

2. *Fransiya* tomonidan 1924 yildan boshlab - Adeli hududiga nisbatan hududiy dahvolarini ilgari sura boshlagan. Mazkur hudud 136° - 142° oralig'idagi sharqiy uzunlikda joylashgan.

3. *Chili* davlati 1940 yildan boshlab materikdagi Megellandiya va Chili Antarktikasi deb ataluvchi 53° - 90° gradus g'arbiy uzunlikda joylashgan hudularga o'z da'vosini ilgari surmoqda.

4. *Argentinaning* materikdagi hududiy da'vosi Argentina Artarktikasiga qartilgan bo'lib, uning boqarilishi Olovli hudud departamenti tomonidan amalga oshirilmoqda. Mazkur hudud 25° - 74° gradus g'arbiy uzunlikda joylashgan.

5. *Avstraliya* Antarktikadagi hududlarga nisbatan asosiy da'vogar davlat hisoblanadi. Mazkur hududlar mamlakat tashqi hududlar deb ataladi va 1933 yildan boshlab mazkur masala shakllangan. Avstraliya da'vosi ostidagi hudud 44° - 136° gradus sharqiy uzunlik va 142° - 160° gradus sharqiy uzunlikda joylashgan.

5. *Norvegiya* ham 1939 yildan 20° gʻarbiy uzunlik- 44° gradus sharqiy uzunlikda va janubda $84-86^{\circ}$ gradus janubiy kenglikda joylashgan Qirolicha Mod yeri uchun oʻz daʼvosini bildirib boshlagan.

6. *Yangi Zelandiya* 1923 yilda Rossa hududi va $90^{\circ}-150^{\circ}$ gʻarbiy uzunlikda Tinch okeani sektoriga (Petra I orolidan tashqari) daʼvolik qilmoqda.

7. *Braziliya* 1986 yildan 28° i 53° gradus gʻarbiy uzunlikda joylashgan Antarktika sektoriga daʼvogarlik qilmoqda. zapadnoy dolgoti vklyuchayutsya v «zonu interesov» Brazili.

10. Antarktika borasida davlat oʻrtasidagi kurashga sabab boʻlayotgan omillar qatoriga quyidagilarni keltirish mumkin:

Birinchidan, muzlik-nihoyatda behisob chuchuk suv manbai boʻlib, yaqin kelajakda kutilayotgan suv resurslari tanqisligi, dunyo aholisining oʻsishi va iqlimning isib ketishi tufayli ziddiyat uchun asosiy sabab hisoblanadi.

Ikkinchidan, deyarli “qoʻl urilmagan” baliq va boshqa dengiz mahsulotlarining seroblighi ham bu borada tanqisligi sezilayotgan davlatlar uchun boyliklar makoni.

Uchinchidan, sayyoramizda koʻpchilik davlatlar uchun aholini oʻsishi muammoga aylanib borayotgan davrda, ulkan hududning kimsasiz yotganligi ham oʻziga tortayotganligi sir emas.

Toʻrtinchidan, bugungi zamonaviy dunyomizda yer osti boyliklarining oʻrni nihoyatda ulkan boʻlib, har davlat oʻz iqtisodiyotini bularsiz tasavvur qila olmaydi. Shunday ekan, sayyoramizning oltinchi qitʼasida hali teginilmagan qazilma boyliklarni mavjudligi bunga yaqqol dalil boʻla oladi.

Beshinchidan esa, ushbu qitʼaning harbiy-strategik ahamiyati ham boshqa bir qancha davlatlarni oʻziga tortishi bejiz emas.

Demak, Antarktika 1959 yilgi shartnomaga asosan, de yure tarzda hech bir davlatga tegishli boʻlmay, mazkur materik faqatgina tinchlik va ilmiy maqsadlar uchun jahonning barcha davlatlari uchun ochiq hisoblanadi. Biroq, fe fakto tarzda materikka nisbatn yaqin davlatlar va oʻzga yetakchi davlatlar hududiy daʼvolarini

ilgari surishmoqda. Bu hududiy da'volar iqtisodiy rivojlanib borayotgan jahonda xom ashyoning muqobil variantini qidirib topish sharoitida keskinlashib borayotganini kuzatish mumkin. Agar mazkur masala kelgusida qayta ko'rib chiqilmasa, bu materik uchun uchun davlalar o'rtasidagi munosabatlarda keskinlikning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Rahbariy adabiyotlar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

- 1.1. 1 Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. –Т.1. –Т.: Ўзбекистон, 1996. –364 б.
- 1.2. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. –Т.2. –Т.: Ўзбекистон, 1996. –380 б.
- 1.3. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. –Т.6. –Т.: Ўзбекистон, 1998. –429 б.
- 1.4. Каримов И.А. Ўз келажагимизни ўз кўлимиз билан қурамыз. –Т.7. –Т.: Ўзбекистон, 1999. –376 б.
- 1.5. Каримов И.А. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. –Т.8. –Т.: Ўзбекистон, 2000. –528 б.
- 1.6. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. –Т.9. –Т.: Ўзбекистон, 2001. –432 б.
- 1.7. Каримов И.А.. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. –Т.10. –Т.: Ўзбекистон, 2002. –432 б.
- 1.8. Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. –Т.11. –Т.: Ўзбекистон, 2003. – 320 б.
- 1.9. Каримов И.А.. Тинчлик ва ҳафсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. –Т.12 –Т.: Ўзбекистон, 2004. –400 б.
- 1.10. Каримов И.А.. Ўзбек халқи ҳеч қачон ҳеч кимга қарам бўлмайди. –Т.13. –Т.: Ўзбекистон, 2005. –264 б.
- 1.11. Каримов И.А. Жамиятимизни эркинлиштириш, ислохатларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. –Т.15. –Т.: Ўзбекистон, 2005. –320 б.

- 1.12. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.:Ўзбекистон, 1997. –326.б.
- 1.13. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.:Маънавият, 2008. –176 б.
- 1.14. Каримов И.А. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеяси мингйиллик ривожланиш мақсадларига бағишланган ялпи мажлисида сўзланган нутқ. // «Халқ сўзи». 2010 йил 22 сентябрь.
- 1.15. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Президент Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг кўшма мажлиси даги маъразуси. // Халқ сўзи, 2010 йил 13 ноябрь.

2. Me'yoriy – huquqiy hujjatlar

- 2.16. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2003.
- 2.17. Ўзбекистон Республикаси «Ташқи сиёсий фаолиятининг асосий принциплари тўғрисида»ги Қонуни. // Халқ сўзи, 1996 йил 31 декабрь.
- 2.18. Мадридского протокола 1991 года. Экологическая этика в Антарктике
//
http://www.coolantarctica.com/Antarctica%20fact%20file//science/madrid_protocol.htm
- 2.19. Antarctic Treaty. Inventory of International Nonproliferation Organizations and Regimes / Center for Nonproliferation Studies. // <http://www.nps.com> - Last Updated: 2.28.2011
- 2.20. Конвенция об обеспечении свободного пользования Суэцким каналом 1888 г. // Международное публичное право / Сборник документов / Сост. К.А. Бекяшев, А.Г. Ходаков. –Т.1. –М., 1996. –С.32-34.

- 2.21. Конвенция о режиме черноморских проливов 1936 г. // Международное публичное право / Сборник документов / Сост. К.А. Бекяшев, А. Г. Ходоков. –Т.1. –С.28-32.

3. Kitoblar, o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar va monografiyalar

- 3.22 Алимов Р.М. Центральная Азия: Общность интересов. –Т.: Шарқ, 2005. –456 с.
- 3.23 Бжезинский З. Великая Шахматная доска. Господство Америки и его геостратегические императивы. –М.: Международные отношения, 1999. –280 с.
- 3.24 Дубровин Л. И. Человек на ледяном континенте. –Ленинград: Гидрометеиздат, 1976. –336 с.
- 3.25 Кравчук П.А. Географический калейдоскоп. –Киев: Радянська школа, 1988. –219 с.
- 3.26 Гиясов Б.Т., Камильжанов А., Мустапова Х. Международные отношения и дипломатия на современном этапе. –Т., 2009. –312 с .
- 3.27 Голицын В.В. Антарктика: международно-правовой режим. –М., 1989. –348 с.
- 3.28 Жалилов А., Туленова Г. Геосиёсат. Услугий қўлланма. –Т., 2008. –156 б.
- 3.29 Жўраев Т., Ақобиров С. Миллий манфаатлар ва миллий хавфсизлик (ўқув қўлланма). –Т.: Академия, 2007. –Б.106.
- 3.30 Жўраев С.А. Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсати ва дипломатияси (ўқув қўлланма). –Т.: Akademiya, 2007. –302 б.
- 3.31 Жўраев С.А. Замонавий халқаро муносабатлар. –Т.: Академия, 2007. – 184 б.

- 3.32 Жўраев С.А., Аҳмедов. О., Раҳимова М., Ўзбекистон ва Жаҳон ҳамжамияти: халқаро муносабатлар ва ташқи алоқаларни ташкил қилиш. –Т.: Гафур Ғулом, 2008. –704 б.
- 3.33 Жураев С.А., Касимова Н.А. Актуальные вопросы современных международных отношений. –Т.:Akademiya. 2008. –320 с.
- 3.34 Касимов А.М., Гиясов Б.Т. Основные направления внешней политики Республики Узбекистан. –Т., 2009. –234 с .
- 3.35 Комар И.В. Рациональное использование природных ресурсов и ресурсные циклы. –М., 1986. –372 с.
- 3.36 Кравчук П. А. Рекорды природы. – Любешов: Эрудит, 1993. –241 с.
- 3.37 Кулагин В.М. Международная безопасность. –М. АСПЕКТ ПРЕСС, 2007. –298 с.
- 3.38 Кўчаров Ч. Марказий Осиёнинг минтақавий интеграцион жараёни муаммолари (геосиёсий таҳлил тажрибаси). –Т.:Фан, 2008. –200 б.
- 3.39 Ланцова С.А., В.А.Ачкасова. Мировая политика и международные отношения: Учебное пособие / Под ред. – СПб.: Питер, 2009. –266 с.
- 3.40 Ломакин В.К. Мировая экономика: Учебник. –М.:Юнити, 2000. –381 с.
- 3.41 Общая теория национальной безопасности. // Под.ред. д.э.н. А.А.Прохожева. –М.:Издательство РАГС, 2005. –287 с.
- 3.42 Одилқориев Х.Т., Очилов Б.Э. Ҳозирги замон халқаро ҳуқуқи. Дарслик. –Т.:ЖИДУ, 2002. –559 б.
- 3.43 Сафоев С. Марказий Осиёдаги геосиёсат. –Т.:ЖИДУ, 2005. –226 б.
- 3.44 Трёшников А.Ф. История открытия и исследования Антарктиды. – М.:Географгиз, 1963. –332 с.
- 3.45 Трофимов В. Н. Правовой статус Антарктики. –М., 1990. –389 с.
- 3.46 Халқаро муносабатлар (геосиёсат, дипломатия, хавфсизлик). – Т.:Академия, 2006. –240 б.

- 3.47 Юлдашева Г.И. Халқаро муносабатларнинг методологик аспекти. – Т.:Математика ва ахборот технологиялар институти босмахонаси, 2009. –215 б.
- 3.48 Шарапова С. Каримова Н. Шарапов А. Внутренняя и внешняя политика зарубежных стран Востока и Запада. –Т.: Фан, 2006. –404 с.
- 3.49 Центральная Азия: геоэкономика, геополитика, безопасность/ /Редколл.: Г.М.Алимов ,Ш.Р.Арифжанов и др. –Т.:Шарқ, 2002. –219 с.
- 3.50 Everson I. Krill: Biology, Ecology and Fisheries. –N.Y.: Blackwell Science, 2000. –372 p.
- 3.51 El-Sayed S.Z. Southern Ocean Ecology: The BIOMASS Perspective. – L.:Cambridge University Press, 1994. – 399 p.
- 3.52 Deacon G.E. The Antarctic Circumpolar. –L.: Cambridge University Press, 1984. –180 p.
- 3.53 Joyner C.C. Antarctica and the law of the sea. –London, 1992. –348 p.
- 3.54 Hunt M.H. Ideology and US foreign policy. –N.Y.: Yale university press, 1987. –414 p.
- 3.55 Ratzel F. Politische Geographie. –Berlin Einleitung, 1887. –364 s.
- 3.56 Ratzel F. Ueber die Gesetze des räumlichen Wachstums der Staaten. –Berlin Einleitung, 1901. –347 s.
- 3.57 Rosenberg S.W. Reason, ideology and politics. –Oxford: Polity press, 1988. –381 p.
- 3.58 Shaw M.N. International Law. –London, 2003. –486 p.

4. Davriy nashrlar

- 4.59 Абазов Р. Глобальные перемены и геополитика на пороге XXI века // Мировая экономика и международные отношения. –1999. –№2. – С.116-120.
- 4.60 Бардин В. Клыки дракона // Вокруг света. –1986. –№ 3 (2545). –С.12-19.

- 4.61 Зуйков Р.С. Вестфальская система межгосударственных отношений: критерии и трансформация // Мировая экономика и международные отношения. – 2010. – №3. – С.13-21.
- 4.62 Касенов У. Новая "Большая игра" в Центральной Азии? // Центральная Азия и Кавказ. –2002. –№ 1(25). –С.11-19.
- 4.63 Касимов, А. Азия в ХХI в.: вызовы миру и трансформация. // Азия и Африка сегодня. – 2003. – №7. –С.19-22.
- 4.64 Клавдиенко В.П. Сырьевая составляющая устойчивого развития мирового сообщества // Вестник МГУ. – М. –№ 2. –С.23-39.
- 4.65 Косолапов Н. Безопасность международная, национальная, глобальная: взаимодополняемость или противоречивость // Мировая экономика и международные отношения. –2006. –№9. –С.3-13.
- 4.66 Марцинкевич В. Мировая экономика в XX веке: потрясающие достижения и серьезные проблемы // Мировая экономика и международные отношения. –М. –2001. –№1. –С.27-34.
- 4.67 Романова Э.П., Куракова Л.И., Ермаков Ю.Г. Природные ресурсы мира. –М., 1993. –421 с.
- 4.68 Сафоев С. Марказий Осиёда кечаётган геосиёсий жараёнлар ва минтақанинг ҳозирги дунё халқаро муносабатлар тизимида тутган ўрни // Халқаро муносабатлар. –Т. –2005. –№3 –Б.4-9 б.
- 4.69 Lindley J. French Security Challenges for the Transatlantic Area. // Internationale Politik. –2011. –№2(Quart.2). –P.52-64.
- 4.70 Patricia C. The Classical Balance of Power Theory // Journal of Peace Research. –Vol.9. –№.1 –1972. –P.51-63.

5. Internet manbalari


- 5.71 В мире начинается борьба за ресурсы Антарктиды // <http://www.city-n.ru/view/91920.html> - 12.10.2010.Иванов Л. и др. Карта о-вов Ливингстон и Гринвич // <http://www.antarktis.ru/index.php?>

- 5.72 Баланс сил в мировой политике // http://mirslovarei.com/content_pol/balans-sil-v-mirovoj-politike-4550.html - 12.05.2009.
- 5.73 Гарегин А. Геополитические интересы России в энергетической сфере в начале XXI века// материалы семинара по Геополитике энергетики Ницца, 28-30 ноября 2002 г. <http://stra.teg.ru/lenta/energy/1123/0306062>
- 5.74 Территориальные претензии в Антарктике. // <http://www.wikipedia.wiki.org> - 16.08.2010
- 5.75 Энергетическая стратегия России в условиях обострения борьбы за невозполнимые природные ресурсы // <http://psqs.ru/index.php/en/expertmm/mmenparadigma/99-2009-02-11-14-00-27.pdf> - 11.02.2009
- 5.76 Paul T.V., [Wirtz J.](#), [Fortmann M.](#) Balance of Power: Theory and Practice in the 21st Century // <http://www.foreignaffairs.com/articles/60299/g-john-ikenberry/balance-of-power-theory-and-practice-in-the-21st-century> - 18.02.2009
- 5.77 Topalov A., Kovalevsky A. \$2 billion of Russian money will melt in Antarctica. The government is allocating money for the exploration of Antarctica // <http://www.lenta.ru> - 22.10.2010.

ILOVA

Ilova 1. Xarita

Atnarktika umumiy xaritasi



Antarkrikada davlatlarning hududiy da'volari